



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar hamda o‘quvchi yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish, psixologlar ish faoliyatini tizimli tashkil etish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida ma’naviy-ma’rifiy, madaniy hamda ko‘ngilochar tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi (keyingi o‘rinlarda – Tartib) 1-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 2026-2027-o‘quv yilida o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning namunaviy ish rejasi (keyingi o‘rinlarda – ish reja) 2-ilovaga muvofiq;

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 2026-2027-o‘quv yilida o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning namunaviy ish rejasi 3-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari psixologining 2026-2027-o‘quv yili uchun namunaviy ish rejasi 4-ilovaga muvofiq;

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari psixologining 2026-2027-o‘quv yili uchun namunaviy ish rejasi 5-ilovaga muvofiq;

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarining milliy ohanglar orqali tinglash madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘zbek milliy mumtoz navolarining haftalik taqsimoti 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi (A.Kamalov) ta’lim tashkilotlarida mazkur buyruq asosida barcha ma’naviy-ma’rifiy ishlar samarali tashkil etilishini nazoratga olsin.

3. Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi (A.Baxramov) haftaning har dushanba kuni ta’lim tashkilotlarida o‘tkaziladigan “Kelajak soati” darslari uchun ssenariy va kontentlarning mazmun-mohiyatini muntazam ravishda boyitib borishini hamda ularni o‘z vaqtida milliytarbiya.uz platformasiga joylashtirishni ta’minlasin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari hamda tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari boshliqlariga:

uch kun muddatda mazkur buyruqning mazmun-mohiyatini keng pedagogik jamoaga yetkazish, maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar hamda sinf rahbarlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish va ish faoliyatini tizimli tashkil etishda qat’iy amal qilinishini ta’minlash;

maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha tashkiliy choralar ko‘rish;

mazkur buyruqda belgilangan vazifalar ijrosini sifatli amalga oshirish hamda belgilangan muddatlarda bajarilgan ishlar yuzasidan har chorakning yakuniga qadar vazirlikka ma’lumot kiritib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Belgilansinki, mazkur buyruqda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi barcha maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining birinchi rahbarlari shaxsan mas’ul hisoblanadi.

6. Axborot xizmati (D.Sobirova) ushbu buyruqni vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga joylashtirsin.

7. Devonxona bo‘limi (S.Xashimov) ushbu buyruqni bir kun muddatda vazirlikning tegishli tarkibiy bo‘linmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga yetkazilishini ta’minlasin.

8. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari F.Boqiyev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



E. Karimova

Toshkent sh.,
2026-yil 6-avgust,
288-son

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining
2026-yil 6-avgustdagi
288-son buyrug'iga
1-ILOVA

**Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida
ma'naviy-ma'rifiy, madaniy hamda ko'ngilochar
tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish
TARTIBI**

I bob. Umumiy qoidalar

Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va ko'ngilochar tadbirlarni tashkil etish hamda o'tkazish tartibi (keyingi o'rinlarda – Tartib) maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va ko'ngilochar tadbirlarni rejalashtirish, tashkil etish, o'tkazish hamda ularning natijalarini baholashga qo'yiladigan yagona tashkiliy, pedagogik, psixologik va xavfsizlik talablarini belgilaydi.

1. Mazkur Tartibning asosiy maqsadi tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish jarayonida tarbiyalanuvchilar hamda o'quvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari, hayoti va sog'lig'i, jismoniy xavfsizligi, ruhiy salomatligi, emotsional farovonligini, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, shuningdek, tadbirlarning ta'limiy va tarbiyaviy samaradorligini ta'minlashdan iborat.

2. Mazkur Tartibning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:
tadbirlarni tarbiyalanuvchilar va o'quvchilarning yoshi, rivojlanish darajasi, qiziqishlari, individual ehtiyojlari va sog'lig'i holatiga muvofiq tashkil etish;

bolalarning xavfsiz, ixtiyoriy va teng ishtirok etishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;

tadbirlarda psixologik bosim, majburlash, kamsitish, uyaltirish va boshqa zo'ravonlik shakllarining oldini olish;

alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun maqbul va teng ishtirok imkoniyatlarini ta'minlash;

tadbirlarni tayyorlash va o'tkazishda mas'ul shaxslarning vazifalari hamda javobgarligini belgilash;

tadbirlarning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi natijalarini baholash tartibini joriy etish.

3. Mazkur Tartib O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida" gi 2008-yil 7-yanvardagi O'RQ-139-son, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 2019-yil

16-dekabrda O‘RQ-595-son, “Ta’lim to‘g‘risida”gi 2020-yil 23-sentabrda O‘RQ-637-son Qonunlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining bolalar huquqlari, ta’lim, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik, yong‘in xavfsizligi, mehnatni muhofaza qilish, jismoniy va psixologik xavfsizlik sohasidagi boshqa qonunchilik hujjatlari hamda xalqaro shartnomalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

II bob. Asosiy tushunchalar va tadbirlarni tashkil etish tamoyillari

4. Mazkur Tartibda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

- **bola (bolalar)** – o‘n sakkiz yoshga to‘lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo‘lgan shaxs (shaxslar);

- **ma’naviy-ma’rifiy tadbir** – bolalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati, huquqiy, ekologik, axborot va kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan tadbir;

- **madaniy tadbir** – bolalarning estetik didi, ijodiy qobiliyati va madaniy saviyasini rivojlantirish, milliy an’analar, san’at, adabiyot va madaniy merosni targ‘ib qilishga qaratilgan tadbir;

- **ko‘ngilochar tadbir** – bolalarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ijobiy emotsional muhit yaratish, jamoaviy hamkorlikni rivojlantirish va sog‘lom dam olishini ta’minlashga qaratilgan o‘yin, tanlov, viktorina, musobaqa va boshqa interaktiv faoliyat;

- **ommaviy tadbir** – ko‘p sonli bolalar, ota-onalar, qonuniy vakillar, tashqi mehmonlar yoki hamkor tashkilotlar vakillari ishtirokida o‘tkaziladigan tadbir;

- **sayyor tadbir** – ta’lim tashkiloti hududidan tashqarida o‘tkaziladigan ekskursiya, sayohat, uchrashuv, tashrif va boshqa tadbir;

- **psixologik xavfsiz muhit** – bolaning kamsitish, haqorat, qo‘rqitish, uyaltirish, majburlash, psixologik bosim yoki ijtimoiy chetlatish xavfsiz erkin ishtirok etishi ta’minlangan muhit;

- **alohida ta’lim ehtiyojlari** – bolaning salomatligi, rivojlanish xususiyatlari yoki boshqa individual holatlari sababli qo‘shimcha pedagogik, psixologik, tashkiliy, texnik yoki kommunikatsion yordamga bo‘lgan ehtiyoji;

- **tadbirning tashkiliy rejasi** – tadbirning maqsadi, vazifalari, o‘tkazish sanasi, vaqti va joyi, ishtirokchilar tarkibi, mas’ul shaxslar, zarur resurslar, xavfsizlik choralari hamda favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tartibini belgilaydigan tashkiliy hujjat;

- **tadbir ssenariysi** – tadbirning mazmuni, bosqichlari, ketma-ketligi, davomiyligi, qo‘llaniladigan usullar, chiqishlar, topshiriqlar va yakunlash tartibini belgilaydigan mazmuniy-uslubiy hujjat.

III bob. Tadbirlarni rejalashtirish va tasdiqlash tartibi

5. Tadbirlar ta'lim tashkilotining yillik ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasi bilan uzviy bog'liq holda, ta'lim-tarbiya maqsadlari, bolalarning yoshi, rivojlanish xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib rejalashtiriladi.

Har bir tadbir aniq ta'limiy, tarbiyaviy yoki rivojlantiruvchi maqsadga ega bo'lishi, bolalarda yangi bilim, ko'nikma, kompetensiya va ijobiy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Tadbirlar mazmunan bir-birini takrorlamasligi, faqat hisobot ko'rsatkichlarini bajarish, rasmiy sanani nishonlash, tomoshaboplik yoki ortiqcha tantanavorlik maqsadida tashkil etilmasligi kerak.

6. Tadbirning tashkiliy rejasida ommaviy, sayyor yoki murakkab tashkiliy tayyorgarlikni talab etadigan tadbirlar uchun tashkiliy reja ishlab chiqiladi.

Tashkiliy rejada tadbirning nomi, maqsadi, vazifalari, o'tkazish sanasi, vaqti, joyi va davomiyligi, ishtirokchilar tarkibi, mas'ul shaxslar, zarur resurslar, xavfsizlik choralari, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tartibi hamda kutilgan natijalar ko'rsatiladi.

Tadbir chiqishlar, o'yinlar, topshiriqlar, musobaqalar yoki sahna ko'rinishlarining muayyan ketma-ketligini talab etgan hollarda ssenariy ishlab chiqiladi.

Kichik guruh yoki sinf doirasida, ta'lim tashkiloti hududida o'tkaziladigan va qo'shimcha xavf tug'dirmaydigan tadbirlar uchun qisqartirilgan tashkiliy reja tuzilishi mumkin.

Tadbir mazmuniga va bolalarga mos bo'lgan kuy va qo'shiqlar saralanadi.

7. Tadbirni tasdiqlashdan oldin uning xavf darajasi ishtirokchilarning yoshi va soni, o'tkazish joyi va davomiyligi, transportdan foydalanish, jismoniy faollik, texnik va sahna jihozlari, tashqi mehmonlar ishtiroki, ob-havo sharoiti hamda boshqa xavf omillari asosida baholanadi.

Sayyor, ommaviy yoki qo'shimcha xavf bilan bog'liq tadbirlar uchun evakuatsiya, birinchi yordam ko'rsatish, bolalarni kuzatib borish va favqulodda vaziyatlarda harakat qilish choralari oldindan belgilanadi.

Tadbir o'tkaziladigan joyning sig'imi, evakuatsiya yo'laklari, sanitariya-gigiyena sharoitlari, yong'in xavfsizligi vositalari va texnik jihozlarning sozligi tadbir boshlanishidan oldin tekshiriladi.

8. Tadbirni kelishish va tasdiqlash tashkiliy rejasi (zarur hollarda ssenariy) tadbirni tashkil etish uchun mas'ul shaxs tomonidan ishlab chiqiladi hamda ta'lim tashkiloti rahbari yoki u vakolat bergan shaxs tomonidan tasdiqlanadi.

Bolalarning psixologik holatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tadbir ssenariysi psixolog bilan, jismoniy faollik yoki tibbiy xavflar bilan bog'liq tadbir rejasi esa tibbiy xodim bilan kelishiladi.

Xavf darajasi baholanmagan, tasdiqlanmagan yoki zarur xavfsizlik choralari ta'minlanmagan tadbirni o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

9. Sayyor, transportdan foydalaniladigan, foto va videotasvirga olish rejalashtirilgan yoki qo'shimcha xavf bilan bog'liq tadbirlar to'g'risida ota-onalar yoki qonuniy vakillar oldindan xabardor qilinadi.

Xabarnomada tadbirning maqsadi, sanasi, vaqti, joyi, davomiyligi, ishtirok etish shartlari, mas'ul shaxslar va asosiy xavfsizlik choralari ko'rsatiladi.

Qonunchilikda yoki mazkur Tartibda nazarda tutilgan hollarda ota-ona yoki qonuniy vakilning yozma yoxud elektron roziligi olinadi.

IV bob. Tadbirlarni o'tkazishga qo'yiladigan talablar va taqiqlar

10. Tadbirlarni o'tkazishning umumiy talablari Tadbirlar bolalarning yoshi, rivojlanish xususiyatlari, qiziqishlari, sog'lig'i holati va individual ehtiyojlariga mos mazmun, shakl va usullar asosida o'tkaziladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tadbirlar qisqa, harakatli, ko'rgazmali va o'yin faoliyatiga asoslangan bo'lishi, bolalarni uzoq vaqt bir holatda turishga, kutishga yoki murakkab matnlarni yodlashga majbur qilmasligi lozim.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tadbirlar bolalarning yoshiga qarab ijodiy topshiriqlar, muhokama, loyiha, intellektual o'yin, musobaqa, debat va boshqa interaktiv usullar asosida tashkil etiladi.

Tadbirlarni uzoq davom etadigan ma'ruzalar, ketma-ket tabrik nutqlari yoki bolalarning faqat passiv tomoshabin sifatida ishtirok etishiga asoslangan shaklda o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning ishtirok etishi uchun zarur tashkiliy, pedagogik, texnik va kommunikatsion sharoitlar yaratiladi.

11. Tadbirning davomiyligi bolalarning yoshi, kun tartibi, ta'lim yuklamasi va dam olish ehtiyojlarini hisobga olgan holda belgilanadi. Tadbirlarning uzluksiz davomiyligi:

maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ularning yosh guruhi va kun tartibiga muvofiq:

- kichik guruh tarbiyalanuvchilari uchun – 25 daqiqadan;
- o'rta guruh tarbiyalanuvchilari uchun – 30 daqiqadan;
- katta guruh tarbiyalanuvchilari uchun – 35 daqiqadan;
- maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari uchun – 40 daqiqadan;

maktab yoshidagi bolalar uchun:

- 1-4-sinf o'quvchilari uchun – 45 daqiqadan;
- 5-9-sinf o'quvchilari uchun – 60 daqiqadan;
- 10-11-sinf o'quvchilari uchun – 90 daqiqadan oshmasligi lozim.

Uzoq davom etadigan tadbirlarda bolalarning dam olishi, suv ichishi va fiziologik ehtiyojlarini qondirishi uchun tanaffuslar tashkil etiladi.

Tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida bolalarni ta’lim mashg‘ulotlaridan asossiz ravishda ajratish, dam olish va ovqatlanish vaqtini cheklash, uzoq yoki ketma-ket majburiy repetitsiyalar o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.

15. Tadbir davomida har bir bolaning sha’ni, qadr-qimmatini, shaxsiy chegaralari, fikri va his-tuyg‘ulari hurmat qilinishi lozim.

Bolani sahnaga chiqishga, rol ijro etishga, shaxsiy fikri yoki ma’lumotini ommada bildirishga, shuningdek, unga psixologik noqulaylik tug‘diradigan topshiriqni bajarishga majburlashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bolalarning tashabbuskorligi, ijodkorligi, mustaqil fikrlashi va jamoaviy hamkorligi qo‘llab-quvvatlanadi.

Pedagoglar va boshqa mas’ul shaxslar bolalar bilan muloqotda hurmat, xolislik, xayrixohlik va pedagogik odob-axloq qoidalariga amal qilishi shart.

16. Salomatlik va texnik xavfsizlik talablariga amal qilish talab etiladi. Tadbir o‘tkaziladigan bino va hudud sanitariya-gigiyena, yong‘in va texnika xavfsizligi talablariga javob berishi, evakuatsiya yo‘laklari ochiq va foydalanishga tayyor bo‘lishi lozim.

Ovoz kuchaytirish, yoritish, sahna va boshqa texnik jihozlar bolalar salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydigan darajada ishlatilishi hamda tadbirdan oldin tekshirilishi shart.

Bolalarni uzoq vaqt tik turishga, noqulay holatda qolishga, ortiqcha jismoniy harakat qilishga yoki fiziologik ehtiyojlarini cheklashga majbur qilish taqiqlanadi.

Jismoniy faollik bilan bog‘liq tadbirlarda bolalarning yoshi, sog‘lig‘i va jismoniy imkoniyatlariga mos xavfsizlik choralari ko‘riladi.

17. Bolalarni foto va videotasvirga olish, ularning tasvirlari hamda boshqa shaxsga doir ma’lumotlaridan foydalanish qonunchilik talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda bolaning ota-onasi yoki qonuniy vakilining oldindan roziligi olinadi.

Bolaning sha’ni va qadr-qimmatiga putur yetkazadigan, uni uyaltiradigan, mazax qilish yoki noto‘g‘ri talqin etishga sabab bo‘ladigan foto, video va montaj materiallarini tayyorlash yoki tarqatishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilgan materiallar yuzasidan bolaga nisbatan haqorat, kamsitish yoki kiberbulling holatlarining oldini olish choralari ko‘riladi.

18. Tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishda quyidagilarga yo‘l qo‘yilmaydi:

- bolalarni kamsitish, haqorat qilish, uyaltirish, qo‘rqitish, mazax qilish, jazolash yoki o‘zaro salbiy taqqoslash;

- bolaning tashqi ko‘rinishi, qobiliyati, sog‘lig‘i, oilaviy yoki ijtimoiy holati yuzasidan uning qadr-qimmatiga putur yetkazadigan izohlar berish;

- bolalarning yoshiga mos bo'lmagan, zo'ravonlik, shafqatsizlik, o'z joniga qasd qilish, kamsitish, ekstremizm, giyohvandlik, tamaki yoki alkogolni targ'ib qiluvchi materiallardan foydalanish;

- bolalarda qo'rquv, vahima yoki kuchli ruhiy zo'riqishni keltirib chiqaradigan usullarni qo'llash;

- pirotexnika, ochiq olov, portlovchi moddalar va sog'liq uchun xavfli jihozlardan foydalanish;

- bolalarni mablag' yig'ish, majburiy xaridlar, reklama, tijorat yoki siyosiy targ'ibot ishlariga jalb qilish;

- sanitariya-gigiyena va xavfsizlik talablariga javob bermaydigan joylarda tadbir o'tkazish;

- bolalarning ta'lim olish, dam olish va ovqatlanish vaqtini asossiz cheklash.

19. Favqulodda vaziyatlarda bolalarning hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'ilganda tadbir darhol to'xtatiladi va ishtirokchilarning xavfsizligi ta'minlanadi.

Mas'ul shaxslar zaruratga ko'ra evakuatsiyani tashkil etadi, birinchi yordam ko'rsatadi, tibbiy va boshqa tezkor xizmatlarni jalb qiladi hamda bolaning ota-onasi yoki qonuniy vakilini xabardor qiladi.

Favqulodda vaziyat yoki bolaning jarohatlanishi bilan bog'liq holat ta'lim tashkilotida belgilangan tartibda qayd etiladi va uning sabablari o'rganiladi.

V bob. Tadbir natijalarini baholash, nazorat va yakuniy qoidalar

20. Tadbir yakunlangach, uning belgilangan maqsadga erishganlik darajasi, bolalarning ishtirok faolligi, emotsional holati, xavfsizligi va tashkiliy sifati baholanadi.

Baholashda bolalar, pedagoglar va zaruratga ko'ra ota-onalar yoki qonuniy vakillarning fikr va takliflari o'rganiladi.

Aniqlangan kamchiliklar, xavflar va ijobiy tajribalar keyingi tadbirlarni rejalashtirishda hisobga olinadi.

Ommaviy, sayyor yoki qo'shimcha xavf bilan bog'liq tadbirlar yakunlari bo'yicha qisqa tahliliy ma'lumotnoma rasmiylashtirilishi mumkin.

21. Ushbu Tartib talablariga rioya etilishini ta'minlash ta'lim tashkiloti rahbari zimmasiga yuklanadi.

Tadbirni tashkil etishda ishtirok etgan pedagog, psixolog, tibbiy xodim va boshqa mas'ul shaxslar o'z vazifalari doirasida Tartib talablariga rioya etilishi uchun javobgar hisoblanadi.

Tartib talablari buzilgan yoki bolalarning huquqlari, xavfsizligi va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi holat aniqlangan taqdirda, u belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi va tegishli choralar ko'riladi.

VI bob. Yakuniy qoidalar

Ta'lim tashkilotlari ushbu Tartib asosida o'zlarining yillik ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejalari, tadbirlarni tashkil etishga oid ichki hujjatlari va amaliy shakllarini ishlab chiqishi yoki takomillashtirishi mumkin.

Ushbu Tartibni qo'llash amaliyoti muntazam tahlil qilinib, qonunchilikdagi o'zgarishlar, bolalar huquqlarini himoya qilish, zamonaviy pedagogika va psixologiya sohasidagi yangi yondashuvlar asosida takomillashtirib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining
2026-yil 6-avgustdagi
288-son buyrug'iga
3-ILOVA

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA 2026-2027-O'QUV YILIDA O'TKAZILADIGAN
MA'NAVIY-MA'RIFIY TADBIRLARNING
NAMUNAVIY ISH REJA**

T/r	Tadbir nomi	Sinflar kesimida	Tadbir mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi
Sentabr – “O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini madh etish” oyligi				
1-hafta				
1.	“Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib yangi hayot va kelajak yaratamiz!” haftaligi	1-11	Haftalik davomida yoshlar va keng jamoatchilikni ezgu maqsadlar atrofida birlashtirish, milliy qadriyatlarni ulug'lash hamda yangi O'zbekiston taraqqiyotiga daxldorlik tuyg'usini mustahkamlashga qaratilgan turli tadbirlar tashkil etiladi. Bir Vatan, bir xalq va yagona maqsad sari birgalikda odimlab, yorqin kelajakni birga bunyod etish haftalikning bosh g'oyasidir.	1.Har haftaning dushanba kuni “Kelajak soati” darslarini o'tkazish. 2. Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali haftalik g'oyalarini keng yoritish hamda targ'ibot materiallarini tarqatish. 3. Haftalik yakunida erishilgan natijalarni tahlil qilish hamda eng faol ishtirokchilar va tashabbuskor o'quvchilarni munosib rag'batlantirish.
2-hafta				
2.	“Yuksak tarbiya – komil inson ko'rki” haftaligi	1-11	Odob-axloq, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etish, yoshlarda mas'uliyat, vatanparvarlik hamda ma'naviy yetuklik fazilatlarini mustahkamlashga qaratiladi. Tadbirlar orqali komil insonni voyaga yetkazishda	1. O'quvchilarga maktabning ichki tartib va odob-axloq qoidalari haqida ma'lumotlar berish. 2. Xushmuomalalik, to'g'riso'zlik, halollik, do'stlik, mehnatsevarlik, ustoz va ota-onaga hurmat ko'rsatish kabi fazilatlarini singdirishga xizmat qiladigan targ'ibot tadbirlarini tashkil etish.

			oila, ta'lim muassasalari va jamiyatning o'zaro hamkorligi kuchaytiriladi. Maktabning ichki tartib va odob-axloq qoidalari bilan o'quvchilar tanishtiriladi.	
3.	“Milliy kitobxonlik harakati” haftaligi	1-11	O'quvchi-yoshlar o'rtasida “Milliy kitobxonlik harakati” dasturi ishlab chiqiladi.	1. Dastur yuzasidan o'quvchilar o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish va ro'yxatdan o'tkazish. 2. Har oy uchun tasdiqlangan kitoblarni belgilangan tartibda o'qitilishini ta'minlash. 3. Har oy o'qish uchun belgilangan kitoblar asosida tashkil etiladigan test sinovlarida o'quvchilar ishtirokini ta'minlash.
3-hafta				
4.	“Jadidlar izidan” tanlovini o'tkazish haftaligi	1-5	Jadid ma'rifatparvarlari bilan tanishtirish maqsadida davra suhbatlari tashkil qilinadi.	Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon kabi jadid ma'rifatparvarlarining hayoti bilan tanishtirish maqsadida davra suhbatlarini tashkil etish.
		6-10	O'quvchilar o'rtasida “Jadidlar izidan” tanlovining targ'iboti olib boriladi. Maktab kutubxonalarida “Jadidlar izidan” klublari tashkil etiladi.	1. Umumta'lim maktablarida “Jadidlar izidan” klublarini tashkil etish. 2. Namunali o'quv dastur asosida mazkur klublar faoliyatini yo'lga qo'yish.
		11	Jadid ma'rifatparvarlari tomonidan yozilgan asarlarning mazmun-mohiyati targ'ib qilinadi.	1. O'quvchilarni Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari mazmuni bilan tanishtirish. 2. Asar mazmuni to'g'risida interfaol usullar orqali o'zaro fikr almashish jarayonini tashkil etish.
	“O'quvchi-yoshlarni muzeylarga ma'rifiy sayohati”	1-11	“O'quvchi-yoshlarni muzeylarga ma'rifiy sayohati” loyihasi doirasida maktab o'quvchilari ishtirokida muzeylar, tarixiy manzilgohlar va diqqatga sazovor joylarga ekskursiyalar tashkil etiladi.	1. O'quvchilar xavfsizligini ta'minlagan holda har oyda bir marotaba o'rnatilgan tartibda muzey, galereya va madaniyat maskanlariga tashriflarni amalga oshirish. 2. Amalga oshirilgan ishlarni OAV va ijtimoiy tarmoqlarda yoritish.

	“Jasorat maktablari”ni 5-sinfiga qabul qilingan o‘quvchilarni “Va’da berish” tadbiri	5	“Jasorat maktablari”ni 5-sinfiga qabul qilingan o‘quvchilarni tantanali “Va’da berish” tadbiri o‘tkaziladi.	1. O‘quvchilar uchun “Va’da berish” tadbiriga ssenariylar tuzish. 2. O‘quvchilar ro‘yxatini shakllantirish. 3. “Va’da berish” tadbirini OAV va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish.
5.	“Ekologik bilimdon” haftaligi	5-11	O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” (o‘simlik turlari bo‘yicha) bilimdoni 1-mavsumi o‘tkaziladi. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.01.2025 yildagi PF-16-son)	5-11-sinf o‘quvchilaridan shakllantirilgan jamoalar o‘rtasida savol-javob o‘yinlari tashkillashtirish.
4-hafta				
6.	“Besh tashabbus olimpiadasi” musobaqalarini o‘tkazish” haftaligi	1-4	“Besh tashabbus olimpiadasi” musobaqalari o‘tkaziladi.	1. O‘quvchilarga O‘zbekistonda sport sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va erishilayotgan natijalar to‘g‘risida ma’lumotlar berish. 2. Sport musobaqalari o‘tkazilishi yuzasidan targ‘ibot ishlarini amalga oshirish. 3. Musobaqalarni belgilangan muddatda yuqori saviyada tashkil etish.
		5-11		1. Musobaqa ishtirokchilari ro‘yxatini shakllantirish. 2. O‘quvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni elektron bazaga sinflar kesimida joylashtirish. 3. Tasdiqlangan reja asosida musobaqalarni o‘tkazish. 4. O‘tkazilgan sport musobaqalarini OAV va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish.
Oktabr – “Ustoz va murabbiylarni ulug‘lash” oyligi				
1-hafta				
7.	“Ustozga ehtirom – kelajakka ehtirom” haftaligi	1-8	Ustozlarning jamiyat taraqqiyotidagi beqiyos o‘rni, mehnati va fidoyiligini e’tirof etish, ularga hurmat va ehtirom madaniyatini yanada mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar o‘tkaziladi.	Maktabning faollar zalida mahalla hamkorligida ustozlarga ehtirom, ularning sharaflari mehnatini e’tirof etish maqsadida “Ustozim — sizga ta’zim!” ma’naviy-ma’rifiy tadbiri dasturlarini ishlab chiqish va tashkil etish.

		9-11	O'quvchilar faolligida “Ustozga ehtirom – kelajakka ehtirom” mavzusida davra suhbat o'tkaziladi.	1. Ustoz-shogird uchrashuvlari hamda muvaffaqiyatga erishgan bitiruvchilar bilan ochiq muloqot tashkil etish. 2. “Mening ustozim – mening ilhom manbaim” insholar va videoroliklar tanlovini o'tkazish.
2-hafta				
8.	“Ilm fan va innovatsiyalar” haftaligi	1-8	O'quvchilarga ilm-fan taraqqiyotidagi olimlar tanishtiriladi.	1.1-4-sinf o'quvchilariga “Ilm-aql chirog'i” mavzusidagi hikoyalarni o'qib eshittirish va ularning mazmuni asosida o'quvchilarda ilm olishga bo'lgan rag'bat hissini uyg'otish.
		9-11	Ilm-fan, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion g'oyalarni targ'ib etish, yoshlarning ilmiy izlanish, ijodkorlik va yangilik yaratishga bo'lgan qiziqishini oshirishga oid suhbat o'tkaziladi.	2. 5-8-sinf o'quvchilariga yurtimizda ilm-fan sohasida olib borilayotgan islohotlar, yaratilayotgan imkoniyatlar va erishilgan natijalar haqida tushunchalar berish. 3. Respublika va xalqaro miqyosdagi barcha fan olimpiadalariga tayyorlanish va ishtirok etishning inson kapitalini rivojlantirishdagi ahamiyati haqida tushuntirish.
		1-11	“Tabiat go'zalligi o'quvchi yoshlar nigohida” rasmlar ko'rgazmasi o'tkaziladi.	1.1-11-sinf o'quvchilari o'rtasida “Tabiat go'zalligi mening nigohimda” shiori ostida rasmlar ko'rgazmasi tashkil etish. 2. Ta'lim muassasasining ijtimoiy tarmog'idagi sahifalariga joylashtirish. (Asos)
9.	“Huquqiy bilim va ijtimoiy faollik” haftaligi	9-11	“Huquqiy-ma'rifiy bilimdon” ijodiy ko'rik-tanlovi o'tkaziladi. <i>(PF-5618, 09.01.2019-yil, vazirlik tomonidan nizom taqdim etiladi).</i>	1. O'quvchilarga ko'rik-tanlovda qatnashish tartib-qoidalarini tushuntirga holda targ'ibot ishlarini olib borish. 2. Hamkor tashkilotlar bilan birgalikda “Huquqiy-ma'rifiy bilimdon” nomli ijodiy ko'rik-tanlovini o'tkazish.
			Xalqaro qizlar kuni munosabati bilan o'quvchi-qizlar bilan tadbirlar tashkil etiladi <i>(VM bayoni asosida).</i>	1. “Qizlar millat tayanchi” shiori ostida tadbir rejasini ishlab chiqish. 2. Ta'lim jarayonlariga xalaqit qilmagan holda tadbirlarni tashkillashtirish.
		3-10	“Sen iste'dodlisan” Respublika hayriya tanlovining maktab bosqichi o'tkaziladi.	1. Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar o'rtasida tanlovni o'tkazish bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish.

				2. Vazirlik tomonidan tasdiqlangan nizomga asosan tanlovning maktab bosqichini tashkil etish.
3-hafta				
10.	“Sport va sog‘lom turmush” haftaligi	1-4	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida gimnastika sporti bo‘yicha “Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri kubogi” musobaqasi tashkil etiladi. (PQ-449, 23.12.2022-yil)	1. Musobaqani tashkil etish yuzasidan targ‘ibot ishlarini amalga oshirish. 2. Musobaqani belgilangan muddatlarda yuqori saviyada tashkil etish. 3. Musobaqa natijalarini OAV va ijtimoiy tarmoqlarda yoritish.
		5-8	O‘g‘il bolalar o‘rtasida “Mini futbol” hamda qizlar o‘rtasida “Voleybol” sport musobaqalari o‘tkaziladi.	
		9-11	“Sog‘lom turmush – muvaffaqiyat garovi” reproduktiv targ‘ibot tadbirlar tashkil etiladi.	1. 9-11 sinf o‘quvchilari uchun oilaviy poliklinikalar bilan hamkorlikda “Sog‘lom turmush – muvaffaqiyat garovi” mavzusida sport festivali, salomatlik chelenchlari va zararli odatlardan saqlanish tadbirlarini tashkil etish. 2. “10 000 qadam” sog‘lomlashtirish aksiyasi doirasida faollikni oshirish. 3. Psixolog bilan stressni boshqarish bo‘yicha treninglar o‘tkazish.
		5-11	Umumta’lim maktabi o‘quvchilari o‘rtasida “Soliq bilimdonlari” ko‘rik-tanlovining maktablar bosqichini o‘tkazish. (PQ-227, 16.06.2026-yil)	1. “Soliq bilimdonlari” ko‘rik-tanlovini tashkil etish. 2. Tadbirlarni OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoritish.
4-hafta				
11.	“O‘zbek tili” haftaligi	1-4	Haftalik doirasida ochiq mashg‘ulotlar, sahnalashtirilgan tadbirlar o‘tkaziladi. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida o‘zbek tilini o‘qitish sifatini oshirish hamda ommalashtirishga qaratilgan “yo‘l xaritasi”)	“Kun hikmati”, “Hafta iborasi”, “O‘zbekcha salomlashamiz”, “O‘zbekcha so‘zlashamiz” kabi doimiy muloqot mashqlarini joriy etish choralari ko‘rish.
		5-11	Nutqiy o‘yinlar hamda ijodiy tanlovlar tashkil etiladi.	

12.	“Tajriba, ibrat va taraqqiyot” haftaligi	7-11	“Uch avlod uchrashuvi” tadbiri o‘tkaziladi. (PQ -92, 11.03.2023-yil)	Maktab faollar zalida “Uch avlod uchrashuvi” tadbiriga maktabni bitirib yuqori natijalarga erishganlar, davlat xizmatchilari, faxriylar, keksalar, namunali ota-onalar va tadbirkorlarni taklif etish choralarini ko‘rish.
Noyabr – “Mehr-oqibat va bag‘rikenglik” oyligi				
1-hafta				
13.	“Mehr bilan birlashamiz!” haftaligi	1-4	O‘quvchilar o‘rtasida “Do‘stlik va muruvvat” mavzusida suhbatlar tashkil etiladi.	O‘quvchilar bilan mavzu bo‘yicha davra suhbatlari tashkil etish va “Do‘stlashamiz!” mavzusidagi ertak-hikoyalarni sahnalashtirish.
		5-8		O‘quvchilarga do‘stlik va muruvvat insoniy qadriyatlardan biri ekanligini tushuntirish.
		9-11	O‘quvchilar o‘rtasida ezgu amallarni targ‘ib etish maqsadida “Muruvvat karvoni” loyihasini tashkil etiladi.	1. Ko‘ngilli o‘quvchilar ro‘yxatini shakllantirish. 2. Loyihaga ota-onalar va homiylarni jalb etish chorasini ko‘rish. 3. Loyiha qatnashchilari tomonidan mahalladagi keksa, nuroniy va uyda ta‘lim oluvchi o‘quvchilar holidan xabar olinish kabi ezgu ishlarini tashkil etish.
2-hafta				
14.	“Tolerantlik” haftaligi	1-4	O‘quvchilarga mehr-oqibat haqidagi qisqa filmlar namoyish etiladi.	O‘quvchilarga mehr-oqibat va muruvvat haqidagi tushunchalarni yetkazish maqsadida ro‘yxatda taqdim etilgan namunali qisqa metrajli filmlarni namoyish etish.
		5-8	O‘quvchilar o‘rtasida “Biz ko‘p millatli xalqmiz” mavzusida insholar tanlovi o‘tkaziladi.	1. O‘quvchilarga mamlakatimizda 100 dan ortiq millat va elatlar vakillari tinch-totuv istiqomat qilayotganligi haqida ma’lumotlar berish. 2. “Biz ko‘p millatli xalqmiz” mavzusida insholar tanlovini tashkil etish hamda g‘oliblarni jamoatchilik oldida e’tirof etish.
		9-11	“Xalqaro bag‘rikenglik kuni” munosabati bilan ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etiladi.	1. O‘quvchilar o‘rtasida “Xalqaro bag‘rikenglik kuni” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbir o‘tkazish. 2. Qardosh xalqlarning urf-odat va an‘analarini namoyish etish. 3. Tadbirlar mazmunini OAV va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish.

3-hafta				
16.	“Vatan bayrog‘i – millat iftixori” haftaligi	1-4	“Muqaddasdir Vatan bayrog‘i” mavzusida rasmlar tanlovi o‘tkaziladi.	1. “Hilpirayver, muqaddas bayrog‘im” mavzusida sinflararo rasmlar tanlovini tashkil etish. 2. Tadbir mazmunini maktab rasmiy kanali va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish.
		5-8	“Bir bayroq ostida birlashamiz” mavzusida videoroliklar tanlovi o‘tkaziladi.	1. “Bir bayroq ostida birlashamiz” mavzusida videoroliklar (35 daqiqalik) tanlovini o‘tkazish bo‘yicha targ‘ibot ishlarini olib borish. 2. Eng namunali g‘oya ostida ishlangan videoroliklarni maktab rasmiy kanali va ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirish.
		9-11	“Muqaddasdir Vatan bayrog‘i” nomi ostida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkaziladi.	1. “Muqaddasdir Vatan bayrog‘i” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil qilish. 2. Tadbirda bayroqni madh etuvchi kuy-qo‘shiqlarning yangrashi, yurt bayrog‘ini yuqori ko‘targan zamonamiz qahramonlari aks etgan voqealarni sahnalashtirishi kabi ijodiy ishlarga e’tibor qaratish. 3.“Muqaddasdir Vatan bayrog‘i” nomi tadbir jarayonlarini OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritish.
4-hafta				
17.	“Biz zo‘ravonlikka qarshimiz” haftaligi	1-4	“Bulling nima?” mavzusida davra suhbatlari o‘tkaziladi.	1. O‘quvchilarga “Bulling nima?” mavzusida tushuncha berish. 2. “Bulling nima?” mavzusida animatsion ko‘rgazma, qisqa videoroliklardan foydalanib davra suhbatlari tashkil etish.
		5-11	“Mehr zo‘ravonlikni yengadi” mavzusi doirasida devoriy gazetalar tanlovi o‘tkaziladi.	1. “Biz zo‘ravonlikka qarshimiz” mavzusida sinflar o‘rtasida devoriy gazetalar tanlovini o‘tkazish. 2. Eng yaxshi tayyorlangan devoriy gazetalarni maktab rasmiy kanalida e’lon qilish.
Dekabr – “Huquqiy madaniyatni oshirish” oyligi				
1-hafta				
18.	“Konstitutsiya – huquqiy davlat poydevori” haftaligi	9-11	“Konstitutsiya – tinchlik va barqarorlik garovi” nomli huquqiy savodxonlik tadbiri tashkil etiladi.	1. O‘quvchilar faolligida “Konstitutsiya olamiga sayohat” nomli huquqiy savodxonlik tadbirini tashkil etish.

				2. Tadbir doirasida “Mening huquq va burchlarim” nomli chellenj o‘tkazish.
		5-8	“Siz qonunni bilasizmi?” mavzusida viktorina o‘tkaziladi.	1. Konstitutsiyaning moddalari asosida viktorina savollarini tuzish. 2. Sinflar o‘quvchilari o‘rtasida viktorinani o‘tkazish. 3. G‘olib bo‘lgan o‘quvchilarni rag‘batlantirish.
		9-11	“Yangi O‘zbekiston va inson huquqlari” mavzusida insholar tanlovi o‘tkaziladi. <i>(O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 3-martdagi 91-son qarori)</i>	1. Tanlov nizomi, mavzulari va baholash mezonlari bilan ishtirokchilarni tanishtirish. 2. Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati va inson huquqlarini himoya qilishdagi o‘rni yuzasidan ma’naviy-ma’rifiy suhbatlar tashkil etish.
19.	“Birgalikda – teng imkoniyat sari” haftaligi	1-11	“3-dekabr xalqaro nogironlar kuni” munosabati bilan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar holidan xabar olish.	1. Uyda yakka tartibda va inklyuziv ta’lim sinflarida ta’lim olayotgan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar ro‘yxatini shakllantirish. 2. Maktab rahbariyati, sinf rahbarlari va sinfdosh-do‘stlari bilan birgalikda ularni yashash xonadoniga tashrif buyurish va ularning holidan xabar olish.
2-hafta				
20.	“Madhiyam – faxrim” haftaligi	1-11	10-dekabr Davlat madhiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan “Madhiyam – faxrim” ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkaziladi.	1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasining matni mazmuni, mualliflari bilan tanishtirish. 2. O‘quvchilarni yurt madhiyasi yangraganda eshitish odobi orqali unga hurmat ko‘rsatishga o‘rgatish.
3-hafta				
21.	“Gadgetlar va men” haftaligi	1-4	O‘quvchilarga gadgetlardan tartibsiz foydalanishning zararli oqibatlarini tushuntirish maqsadida “Telefonsiz kun” aksiyasi tashkil etiladi.	1. O‘quvchilar bilan “Gadgetlar va men” mavzusida davra suhbatlarini tashkil etish. 2. Gadgetlardan foydalanish madaniyati, ulardan tartibsiz foydalanishning zararli oqibatlari haqida tushunchalar berish. <i>(ko‘rgazmali vositalardan keng foydalanish tavsiya etiladi)</i> 3. O‘quvchilarni “Telefonsiz kun” aksiyasi doirasida kitob bilan do‘stlashish va sportga jalb qilish kabi foydali mashg‘ulotlarga yo‘naltirish.
		5-8	“Internetdan to‘g‘ri foydalanish” odobi tushuntiriladi.	1. O‘quvchilarga internet va ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy va salbiy oqibatlari haqida hamkor tashkilotlar

		9-11	“Ijtimoiy tarmoqlar illyuziyasi va men” mavzusida interfaol davra suhbatlari tashkil etiladi.	mutaxassislari bilan birga davra suhbatlarini tashkil etish. 2. O‘quvchilarni kitob bilan do‘stlashish va sportga jalb qilish kabi foydali mashg‘ulotlarga yo‘naltirish.
4-hafta				
22.	“Yangi yil – yangi imkon” haftaligi	1-11	“Yangi yil – yangi imkon” nomli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etiladi.	1. “Yangi yil – yangi imkon” nomli ma’naviy-ma’rifiy tadbirning ssenariysini ishlab chiqish. 2. “Yangi yil – yangi imkon” mavzusida maktab faollari zalida ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkillashtirish. 3. O‘quvchilar bilan yangi yil orzulari haqida interfaol suhbatlar uyushtirish. (Haftalik doirasida, o‘quvchilar ongida pirotexnika vositalarni sotib olmaslik va uning inson hayoti uchun zararlari haqida targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish)
23.	“She’riyat va huquqiy tafakkur” haftaligi	9-11	O‘zbekiston qahramoni Erkin Vohidov tavallud kuni munosabati bilan adabiy-badiiy kecha tashkil etiladi.	1. O‘zbekiston qahramoni, shoir va jamoat arbobi Erkin Vohidov hayotiga bag‘ishlangan adabiy-badiiy kecha o‘tkazish. 2. O‘quvchi yoshlar faolligida shoir ijodidan mushoiralik davralari tashkil etish. 3. Erkin Vohidovning “Inson qasidasi” nomli she’ri asosida tayyorlangan videokontentni namoyish etish.
			“Xalqaro inson huquqlari kuni”ga bag‘ishlangan turkum tadbirlar tashkil etiladi. (PQ-46, 07.02.2023-yil)	1.“Xalqaro inson huquqlari kuni” munosabati bilan huquqshunos olimlar, soha ekspertlari hamkorligida turkum tadbirlar tashkil etish. 2.Tadbirlarni OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoritish.
Yanvar – “Vatanparvarlik” oyligi				
1-hafta				
24.	“Qishki ta’tilni mazmunli o‘tkazaman” haftaligi	1-11	“Yangi yilda - Yangi O‘zbekiston bo‘ylab sayohat” tadbiri doirasida hududlardagi muzeylarga sayohat uyushtiriladi. (PQ-232, 30.04.2022-yil)	1. O‘quvchilar bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga qaratilgan turli yo‘nalishlardagi to‘garaklar hamda sport seksiyalari faoliyatini sifatli tashkil etish. 2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Besh tashabbus” to‘garaklarini tashkil etish uchun mas’ullarni belgilash. 3. O‘quvchilarni kitobxonlik, rassomchilik, turli fanlar kesimidagi tanlovlarga jalb qilish.

				4. Tanlovlarning saralash bosqichi musobaqalarini o‘tkazish.
2-hafta				
25.	“14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni” haftaligi	1-4	“Milliy armiya – faxrim va iftixorim!” shiori ostida vatanparvarlik tadbirlari o‘tkaziladi.	1. “ Milliy armiya – faxrim va iftixorim! ” shiori ostida vatanparvarlik tadbirlari o‘tkazish ssenariysini ishlab chiqish. 2. O‘quvchilarga vatanparvarlik ruhidagi qo‘shiqlarni kuylatish, marsh musiqalari ostida harbiycha yurishga o‘rgatish kabi amaliy ishlarni tashkil etish.
		5-9	“Oliy harbiy ta’lim muassasalarida ochiq eshiklar kuni” tadbirlari tashkil etiladi.	1. Hududlardagi oliy harbiy ta’lim muassasalariga ekskursiyalar uyushtirish. 2. ChQBT o‘qituvchilar ishtirokida davra suhbatlari o‘tkazish. 3. Oliy harbiy ta’lim muassasalarning ish faoliyati bilan o‘quvchilarni tanishtirish.
		10-11	“Vatan tayanchi” otryadi a’zolari ishtirokida harbiy-vatanparvarlik sport musobaqalari o‘tkaziladi. (PQ-150, 02.03.2022-yil)	1. Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari, mahalla faollari, harbiylar, faxriylardan iborat hakamlar hay’atini shakllantirish. 2. Yoshlar o‘rtasida harbiy-vatanparvarlik ruhini kuchaytirish maqsadida sport musobaqalarni tashkil etish. 3. G‘olib bo‘lgan o‘quvchilarni e’tirof etish.
		1-11	“Tabiatni asrashda mening hissam” nomli o‘quvchilar faolligida chellenj.	1. O‘quvchilar tomonidan “Tabiatni asrashda mening hissam” nomli 3 daqiqadan ko‘p bo‘lmagan video reportajlar tayyorlash. 2. Eng sara kontentlar tanlab olingan holda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarga joylashtirib borish.
3-hafta				
26.	“Harbiy qismlarga tashrif buyurish” haftaligi	1-11	“Mardlar qo‘riqlaydi Vatanni!” shiori ostida harbiy-qismlar bilan targ‘ibot tadbirlari uyushtiriladi.	1. Harbiy qismlarda faoliyat yuritayotgan xizmatchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazish. 2. Harbiy poligon va o‘quv dala maydonlariga ekskursiyalar tashkil etish. 3. Tadbirlarni OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritish.
4-hafta				

27.	“Qurolli Kuchlarining yaratilish tarixi bilan tanishish” haftaligi	1-11	Qurolli kuchlar tarixi aks etgan muzeylarga o‘quvchilarning tashriflari amalga oshiriladi.	1. O‘quvchilarni muzeylarga tashrifini amalga oshirish. 2. O‘quvchilarga Qurolli Kuchlarning yaratilish tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlarni yetkazish.
		5-8	“Jasorat maktablari” o‘quvchilari ishtirokida “Mening armiyam – mening faxrim” mavzusida qo‘l ishlaridan iborat ko‘rgazma tashkil etiladi.	1. “Mening armiyam – mening faxrim” mavzusida qo‘l ishlaridan iborat ko‘rgazma tashkil etish. 3. Ko‘rgazmada faol qatnashgan o‘quvchilarni e’tirof etish.
Fevral – “Tarix va meros” oyligi				
1-hafta				
28.	“Uchinchi Renessans – yoshlar nigohida” haftaligi	1-4	“Renessans – nima?” mavzusida o‘quvchilar bilan davra suhbat tashkil etiladi.	1. “Renessans” tushunchasini o‘quvchilarga anglatish maqsadida mavzu doirasida videorolik namoyish etish. 2. “Renessans - nima?” mavzusini interfaol savol javob orqali mustahkamlash.
		5-11	“Men renessans bunyodkoriman” mavzusida o‘quvchilar orasida video chellenj o‘tkaziladi.	1. O‘quvchilar bilan “Uchinchi Renessans – yoshlar nigohida” mavzusida davra suhbat tashkil etish. 2. O‘quvchilar orasida “Men renessans bunyodkoriman” mavzusida video chellenj o‘tkazish. (o‘quvchilar video chellenj orqali yurt ravnaqiga qanday hissa qo‘shishi to‘g‘risidagi kelajak rejalarini so‘zlab beradi)
2-hafta				
29.	“Buyuk ajdodlar merosi” haftaligi	1-4	Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud kunlari munosabati bilan “Buyuk ajdodlar merosi – yuksak tarbiya manbai” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbir o‘tkaziladi.	1. Alisher Navoiy va Boburning bolaligi tasvirlangan “Dovyurak Alisher”, “Qovun isi” hikoyalarini sahnalashtirish.
		5-11	Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud kunlariga bag‘ishlangan adabiy-badiiy g‘azalxonlik kechalari tashkil etiladi.	1.Sinflar kesimida g‘azalxonlik musobaqalarini tashkil etish. 3.“Buyuk ajdodlar merosi – yuksak tarbiya manbai” haftaligi mazmunini OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritish.
		1-11	Maktablarda ta’lim olayotgan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar o‘rtasida “Boburga ehtirom” va	1. Uyda yakka tartibda va inklyuziv sinflarda ta’lim olayotgan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan

			“Navoiyga ehtirom” gʻazallar chellenjini tashkil etish.	oʻquvchilar tomonidan aytilgan gʻazallarni videorolik tarzida surʻatga olish. 2. Videorolikni telegram orqali vazirlikka yuborish.
30.	“Maʼrifatli va sogʻlom jamiyat quramiz” haftaligi	9-11	“Xalqaro ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar kuni” munosabati bilan maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar tashkil etiladi.	1. Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturiga muvofiq “Xalqaro ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar kuni” munosabati bilan maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlarni tashkil etish.
		5-11	“Yoshlar orasida giyohvandlikka qarshi kurashish” tezkor-profilaktik tadbirlar oʻtkaziladi. (PF-207-son Farmoni, 06.11.2025-yil)	1. Huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar xodimlari bilan birgalikda giyohvandlikka qarshi kurashish boʻyicha uchrashuvlar, davra suhbatlari tashkil etish. 2. Oʻquvchilarga giyohvandlikning inson salomatligiga salbiy taʼsirini tushuntirish maqsadida tibbiyot xodimlari bilan hamkorlikda uchrashuvlar tashkil etish va mavzuga oid videorolik namoyish etish.
		5-11	Oʻzbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” (hayvon turlari boʻyicha) bilimdoni 2-mavsumi oʻtkaziladi. (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.01.2025 yildagi PF-16-son)	5-11-sinf oʻquvchilaridan shakllantirilgan jamoalar oʻrtasida savol-javob oʻyinlari tashkillashtiriladi.
3-hafta				
31.	“Turon” maktab teatri, “Qizlarni sportga jalb qilish” haftaligi	1-11	Sinflar oʻrtasida “Turon” maktab teatri tanlovining saralash bosqichi oʻtkaziladi.	1. “Turon maktab teatri” tanlovi yuzasidan oʻquvchilar orasida keng qamrovli targʻibot ishlarini tashkil etish hamda tanlovda ishtirok etuvchi maktab jamoalarini shakllantirish. 2. Tanlovga puxta tayyorgarlik koʻrish hamda oʻquvchilarni munosib ishtirok etishini taʼminlash. 3. “Teatr — ibratxonadir” dasturi doirasida oʻquvchilar xavfsizligini taʼminlagan holda reja asosida teatrlarga tashriflarni amalga oshirish.
		8-11	Futbol boʻyicha “Maktabgacha va maktab taʼlimi vaziri kubogi” musobaqasining saralash bosqichi oʻtkaziladi.	1. Musobaqa yuzasidan oʻquvchilar oʻrtasida targʻibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish va ishtirok etuvchi jamoalar roʻyxatini shakllantirish. 2. Musobaqaning saralash bosqichini belgilangan nizom talablari asosida yuqori saviyada tashkil etish.
4-hafta				

32.	“Muzeylar – tarix ko‘zgusi” haftaligi	1-11	Muzeylar ochiq kuni doirasida maktab o‘quvchilari bilan “Islom sivilizatsiyasi markaziga” online va offline ekskursiya tashkil etiladi.	1.O‘quvchilar xavfsizligini ta’minlagan holda har oyda bir marotaba o‘rnatilgan tartibda muzey, galereya va madaniyat maskanlariga tashriflarni amalga oshirish. 2.Amalga oshirilgan ishlarni OAV va ijtimoiy tarmoqlarda yoritish.
33.	“Yoshlar – jamiyat taraqqiyoti bunyodkorlari” haftaligi	8-11	O‘quvchilar orasida “ Vatanparvarlar ” va “ Yashil chiroq ” musobaqalari o‘tkaziladi. <i>(PQ-261-son qarori 26.06.2023-yil, PQ-150 yil, PQ-212-son qaror yil)</i>	1. Maktab o‘quvchilari orasidan jamoalarni shakllantirish. 2. Har bir yo‘nalish bo‘yicha topshiriqlar, sinovlar, baholash mezonlarini tayyorlash. 3. Musobaqa qatnashchilarini sport anjomlari, belgilar, texnik jihozlar bilan ta’minlash. Musobaqalarni yuqori saviyada tashkil etish.
		7-11	11-fevral – Xalqaro ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar kuni bo‘yicha tadbirlar o‘tkaziladi <i>(VM bayoni)</i>	1. “Ilm-fandagi ayollar – taraqqiyot bunyodkorlari” mavzusida olim, pedagog va mutaxassislar ishtirokida uchrashuv va ochiq muloqot o‘tkazish. 2. “Yosh olim qizlar” mavzusida ilmiy loyihalar, innovatsion g‘oyalar va ijodiy ishlanmalar taqdimotini tashkil etish. 3. “Ilmga intilgan qizlar” shiori ostida fan olimpiadalari, viktorinalar va intellektual bellashuvlar o‘tkazish.
Mart – “Milliy qadriyatlar” oyligi				
1-hafta				
34.	“Yangilanish va yosharish” haftaligi	1-11	O‘zbekiston xalq shoirasi Zulfiya (Zulfiya Isroilova) tavalludi hamda 8-mart - “ Xalqaro xotin-qizlar kuni ” munosabati bilan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etiladi.	O‘zbekiston xalq shoirasi Zulfiya (Zulfiya Isroilova) tavalludi hamda 8-mart - “ Xalqaro xotin-qizlar kuni ” munosabati bilan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etish.
35.		1-4	“ Xalqaro xotin-qizlar kuni ” munosabati bilan o‘quvchilar “Mening mehr quyoshim” mavzusida ijodiy tanlov tashkil etiladi.	1. “ Xalqaro xotin-qizlar kuni ” munosabati bilan o‘quvchilar “Mening mehr quyoshim” mavzusida buvjonlar, onajolar, opa-singillarni madh etuvchi rasm, insho, she’r tanlovini tashkil etish. 2. Eng yaxshi ijodiy ish mualliflarini taqdirlash.

			O‘quvchilar bilan “Besh tashabbus olimpiadasi” musobaqalari o‘tkaziladi.	1. “Besh tashabbus olimpiadasi” yo‘nalishlari bo‘yicha iqtidorli va faol o‘quvchilar ro‘yxatini tuzish va sinflar kesimida jamoalarni shakllantirish. 2. “Besh tashabbus olimpiadasi” musobaqalarini yuqori saviyada tashkil etish. 3. O‘tkazilgan musobaqalarni OAV va ijtimoiy tarmoqlarda yoritish.
2-hafta				
36.	“Iqtidor” maktab ansambli hamda “Yashil kelajak sari” haftaligi	6-10	“Iqtidor” maktab ansamblida ishtirok etuvchi jamoalar shakllantiriladi va tuman (shahar) bosqichlari o‘tkaziladi.	1. “Iqtidor” maktab ansambli tanlovi yuzasidan o‘quvchilar orasida keng qamrovli targ‘ibot ishlarini tashkil etish. 2. Maktablarga taqdim etilgan 7 turdagi milliy cholg‘ular bilan o‘quvchilarni tanishtirish. Musiqiy qobiliyatli o‘quvchilar ishtirokida klublar faoliyatini yo‘lga qo‘yish. 3. Klub a‘zolari o‘rtasida tanlovda ishtirok etuvchi maktab jamoalarini shakllantirish. 4. Tanlovga puxta tayyorgarlik ko‘rish hamda yuqori saviyada ishtirok etishni ta‘minlash
		5-11	1.“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ko‘chatlar ekish tadbiri tashkil etiladi. 2.“Qushlar bizning do‘stimiz” aksiyasi o‘tkaziladi	1.“Yashil makon” umummilliy loyihasida faol ishtirok etish. 2.Umumta’lim va ixtisoslashtirilgan maktablarning yuqori sinf o‘quvchilari tomonidan “Qushlar bizning do‘stimiz” tadbiri doirasida qushlar uchun uycha (in)lar yasaliib, daraxtlarga o‘rnatish.
3-hafta				
37.	“Har kuning Navro‘z bo‘lsin!” haftaligi	1-11	“Xush kelibsan, Navro‘zim!” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy bayram sayllari tashkil etiladi.	1. Sinflar kesimida milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi bayram saylini tashkil etish (<i>ijodiy va qo‘l ishlari ko‘rgazmasi, milliy o‘yinlar: “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Kurash”, “Besh tosh”, “Arqon tortishish”, “Varrak yasash va uchirish” musobaqalar).</i>

				2. Milliy raqs va qo'shiqlar, sahna ko'rinishlari, hunarmandchilik ko'rgazmasini o'tkazish. 3. "Har kuning Navro'z bo'lsin!" haftaligini OAV va ijtimoiy tarmoqlarda yoritish.
4-hafta				
38.	"Bahorgi ta'til kunlarini mazmunli tashkil etish" haftaligi	1-11	"Futbolimiz kelajagi sening qo'lingda" futbol musobaqasi o'tkaziladi.	1. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'rtasida futbol, milliy sport, kibersport musobaqalarini o'tkazish konsepsiyasini ishlab chiqish. 2. Musobaqalarni o'tkazish yuzasidan targ'ibot ishlarini amalga oshirish va belgilangan muddatlarda yuqori saviyada tashkil etish. 3. O'tkazilgan musobaqalarni OAV va ijtimoiy tarmoqlarda yoritish.
Aprel - "Kitobxonlik" oyligi				
1-hafta				
39.	"Kitobxonlik – baxtli hayot omili" haftaligi	1-11	"Eng faol kitobxon o'quvchi" ko'rik-tanlovlari o'tkaziladi.	1."Eng faol kitobxon o'quvchi" ko'rik-tanlovlarini har bir sinf o'quvchilari o'rtasida hamda sinflar kesimida tashkil etish.
		1-11	Maktablarda ta'lim olayotgan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar o'rtasida "Amir Temur siymosi" mavzusida rasmlar tanlovini tashkil etish.	1. Uyda yakka tartibda va inklyuziv sinflarda ta'lim olayotgan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar tomonidan Sohibqiron Amir Temur rasmini chizidirsh. 2. Rasmni telegram orqali vazirlikda yuborish.
2-hafta				
40.	"Amir Temur" haftaligi	1-4	"Amir Temur-buyuk bobom" mavzusida faollar zalida ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etiladi.	1. "Bizning Temur bobomiz" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy davra suhbat tashkil etish. 2. Amir Temurning mardlik, jasurlik, to'g'ri so'zlik, adolatsevarlik kabi fazilatlarini bolalarga namuna sifatida o'rgatish.
		5-11	Amur Temurning "Temur tuzuklari" asari ostida viktorinalar o'tkaziladi.	1. "Temur tuzuklari" asari ostida viktorina savollarini ishlab chiqish. 2. Viktorinada ishtirok etadigan o'quvchilar ro'yxatini tuzish va viktorinani o'tkazish.
41.	"Yoshlar eko-jamiat sari" haftaligi	7-11	Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida "Zakovat" intellektual o'yining maktab bosqichi o'tkaziladi.	1. "Zakovat" intellektual o'yinini tashkil etish. 2. Tadbirlarni OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoritish

			(PQ-96-son, 20.01.2021-yil)	
		1-11	“Eng namunali eko maktab” respublika onlayn videoroliklari tanlovi tashkil etiladi.	1. Tanlov ta’lim muassasalari o‘quvchilari tomonidan ta’lim muassasasi hududida ekologik burchak, yashil maydon yoki kichik bog‘ tashkil etilganligi va afzalligi, ekologiyani asrash bo‘yicha yangi loyihalar ishlab chiqilganligi va amaliyotga tadbiq etilganligi bo‘yicha videorolik shaklida o‘tkaziladi. 2. Saralangan videoroliklar orasidan respublika bosqichi g‘olibi https://t.me/maktabdaecomadaniyat telegram sahifasida ovoz berish orqali aniqlanadi.
3-hafta				
42.	“Kasblar olamiga sayohat” haftaligi	1-6	“Kasblar olamiga sayohat” mavzusida suhbatlar o‘tkaziladi.	1. O‘quvchilarga ko‘rgazmali vositalar yordamida turli kasblar haqida tushunchalar berish. 2. O‘quvchilar orasida “ Kim bo‘lsam ekan? ” mavzusida interfaol muloqot jarayonini tashkil etish.
		7-11	“Men sevgan kasb” shiori ostida ekskursiyalar tashkil etiladi. (PQ-53-son, 02.02.2024-yil)	1. Mahallalarda tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ygan firma, korxona, tashkilotlar ro‘yxatini shakllantirish. 2. Reja-grafikka muvofiq o‘quvchilarni firma, korxona, tashkilotlarga olib borish.
4-hafta				
43.	“Milliy san’at va hunarmandchilik” haftaligi	1-4	O‘quvchilarga milliy hunarmandchilik sirlari to‘g‘risida tushunchalar beriladi.	1. O‘quvchilarga milliy hunarmandchilik to‘g‘risidagi animatsion taqdimot va qisqa muddatli filmlarni taqdim qilish. 2. O‘quvchilarga taqdimot va filmlar asosida milliy hunarmandchilik to‘g‘risida tushunchalar berish.
		5-11	Qo‘lda yasalgan milliy hunarmandchilik namunalarining ko‘rgazmasi tashkil etiladi.	O‘quvchilar tomonidan qo‘l mehnati bilan yasalgan milliy san’at va hunarmandchilik namunalarining ko‘rgazmasini tashkil etish.
May – “Xotira va qadrlash” oyligi				
1-hafta				
44.	“Xotira va qadrlash kuni” haftaligi	1-11	“Xotira – abadiy, qadr muqaddas” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy bayram tadbiri o‘tkaziladi.	1. Sinflar kesimida o‘quvchilarga xotiraning abadiyligi hamda qadrning muqaddasligi to‘g‘risida tushunchalar berish. 2. Faxriy harbiylar, nuroniylar bilan uchrashuvlar tashkil etish.

				3. Turli xil sohalarda faoliyat yuritgan, yurt ravnaqiga oʻz hissasini qoʻshgan faxriy va nuroniylarning xonadonlariga tashrif buyurish.
2-hafta				
45.	“Qahramonlik, burch va fidoyilik” haftaligi	1-6	Oʻquvchilar orasida “ Mening qahramonlarim ” mavzusida suhbat oʻtkaziladi.	1. Oʻquvchilarga Vatan qahramonlari haqida qisqacha tushuncha berish. Suhbat davomida oʻquvchilar oʻzlari qahramon deb bilgan yaqinlari (ota, ona, aka, togʻa, amaki)ning yutuqlari toʻgʻrisida soʻzlab berishini amalga oshirish.
		5-8	Oʻquvchilar bilan madaniyat maskanlari, harbiy qismlar muzeylarga ekskursiyalar uyushtiriladi. (18-may – Xalqaro muzeylar kuni munosabati bilan joylashuv hududidan kelib chiqqan holda muzeylarga sayohat uyushtirish)	1. Tashrif joylarini aniqlashtirish. 2. Hamkor tashkilotlar bilan reja asosida tashriflarni amalga oshirish.
		9-11	Oʻquvchilarda qahramonlik, vatanparvarlik, burch va fidoyilik tuygʻularini shakllantirish maqsadida Javlon Jovliyev qalamiga mansub “Qoʻrqma” asari asosida film namoyish etiladi. https://yandex.uz/video/preview/5399255153632429623	1. Oʻquvchilarga asar mazmunini tushuntirib berish. 2. Film namoyishini taʼminlash.
3-hafta				
46.	“Oila – millat qoʻrgʻoni” haftaligi	1-4	“ Mening oilam ” mavzusida davra suhbatlari tashkil etiladi.	1. Oʻquvchilar bilan “ Mening oilam ” mavzusida davra suhbatlari tashkil etish va mavzuni interfaol usullar orqali mustahkamlash. 2. Oʻquvchilarga oila aʼzolari bilan ijobiy munosabatda boʻlish odobi haqida tushunchalar berish.
		5-8	“ Oiladagi mening oʻrnim: vazifa va masʼuliyatlar ” mavzusida trening tashkil etiladi.	1. Oʻquvchilar bilan “ Oiladagi mening oʻrnim: vazifa va masʼuliyatlar ” mavzusida interfaol bahs-munozaralar tashkil etish. 2. Trening davomida oʻquvchilarning fikr va mulohazalarini umumlashtirish va xulosa berish. 3. Treningda ishtirok etgan eng yaxshi oʻquvchilarni eʼtirof etish.

		9-11	“Men oila budjetini qanday shakllantiraman?” mavzusida trening tashkil etiladi.	1. O‘quvchilar bilan “Men oila budjetini qanday shakllantiraman?” mavzusida interfaol bahs-munozaralar tashkil etish. 2. Oila byudjetini shakllantirish rejasini ishlab chiqish bo‘yicha o‘quvchilar taqdimotlarini tinglash. 3. Taqdimotda ishtirok etgan eng yaxshi o‘quvchilarni e’tirof etish.
4-hafta				
47.	“So‘nggi qo‘ng‘iroq” haftaligi	1-11	O‘quv yili yakuniga bag‘ishlangan “So‘nggi qo‘ng‘iroq” tadbiri o‘tkaziladi.	O‘quv yili davomida namunali o‘quvchilarning erishgan yutuqlarini e’tirof etish.
48.	Harbiy-vatanparvarlik musobaqalarini respublika bosqichini o‘tkazish haftaligi	9-11	“Yosh qutqaruvchi”, “Yosh chegarachi” va “Yosh gvardiyachi” harbiy-sport musobaqalari tashkil etiladi.	1. Nizom asosida musobaqalarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish. 2. Respublika bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritgan o‘quvchilar ro‘yxatini shakllantirish. 3. Musobaqalarni o‘tkazish yuzasidan targ‘ibot ishlarini amalga oshirish. 4. O‘tkazilgan musobaqalarni OAV va ijtimoiy tarmoqlarda yoritish.

Izoh: Mazkur ma’naviy-ma’rifiy yillik rejasining tadbirlardan tashqari ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari tomonidan quyidagi vazifalar ham amalga oshiriladi:

1. Haftaning har dushanba kuni ertalabki saflanishda madhiya ijrosi bilan bayroq ko‘tarish tadbirlarini o‘tkazish;
2. Haftaning har dushanba kuni 1-soatda barcha sinflar uchun enteraktiv tarzda “Kelajak soati” darslarini tashkil etish.
3. Har haftaning payshanba kunini - Profilaktika kuni sifatida o‘tkazish;
4. Har chorak yakunida sinflar kesimida ota-onalar majlisini o‘tkazish;
5. Yozgi ta’til davri uchun alohida reja ishlab chiqish va sog‘lomlashtirish maydonchalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish;
6. “Maktab-mahalla-ota-ona” tamoyili asosida mahalla yettiligi bilan hamkorlikda muntazam profilaktik tadbirlarni amalga oshirish;
7. Sinf rahbarlarining ishi va davomatining to‘g‘ri yuritilishini nazorat qilish;
8. Ichki tartib va odob-axloq qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilish;
9. Darsga sababsiz kelmagan, maktabning ichki hamda ichki ishlar profilaktika nazoratiga olingan o‘quvchilarning davomatini nazo rat qilish, ularga mas‘ullar biriktirish, bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, yakka tartibda ishlash;
10. Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida ogohlik, xavfsizlik va sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish, pedagog xodimlar va o‘qituvchilarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish ishlarini muvofiqlashtirish.
11. Haftaning har payshanba-Yoshlar kuni munosabati bilan uchrashuv va ochiq muloqotlar tashkil etish.
12. O‘quvchilar o‘rtasida giyohvandlik va narkojinoyatlarni oldini olish bo‘yicha ishlarni tashkil etish.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining
2026-yil 6-avgustdagi
288-son buyrug‘iga
5-ILOVA

**Umumiy o‘rta ta’lim maktablari psixologining 2026-2027-o‘quv yili uchun
NAMUNAVIY ISH REJA**
(2026-2027 o‘quv yili Psixologik xizmat faoliyatining asosiy ustuvor yo‘nalishi
“Xavfsiz va psixologik farovon ta’lim muhitini yaratish”)

T/r	Tadbir mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Ishtirokchilar	Hamkorlar
Sentabr — “Moslashuv va xavfsiz ta’lim muhiti” oyligi				
1.	Xavf guruhiga mansub o‘quvchilarni barvaqt aniqlash.	Sinf rahbarlari, fan o‘qituvchilari, ota-onalar, mahalla va profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda xavf omillari mavjud o‘quvchilarni aniqlash; psixologik skrining o‘tkazish, xavf guruhi reyestrini shakllantirish va individual korreksion va profilaktik kuzatuv rejasini ishlab chiqish; psixologik kuzatuv, suhbat, so‘rovnoma va psixodiagnostik metodikalar orqali ijtimoiy-psixologik pasport va xavf kartasini shakllantirish.	1-11-sinflar	Sinf rahbarlar, tibbiyot xodimi, inspektor-psixolog
2.	1- va 5-sinf o‘quvchilarining yangi ta’lim bosqichiga moslashuvini baholash.	Moslashuv diagnostikasi, anketa, kuzatuv va suhbatlar asosida psixologik xulosa tayyorlash hamda korreksion ishlarni rejalashtirish. dars jarayoni va tanaffuslarda psixologik kuzatuv tashkil etish;	1-va 5-sinflar	Sinf rahbarlar, Fan o‘qituvchilari

		moslashishda qiyinchilikka duch kelgan o'quvchilar uchun korreksion ish rejasini ishlab chiqish.		
3.	Maktabda xavfsiz ta'lim muhiti auditini o'tkazish.	Psixologik iqlim, bullying, kiberbullying, zo'ravonlik va diskriminatsiya xavflarini chek-listlar (so'rovnomma) asosida baholash; maktabning psixologik xavfsizlik indikatorlarini belgilash; bullying, kiberbullying, diskriminatsiya va zo'ravonlik holatlari bo'yicha ma'lumotlar yig'ish; maktab uchun profilaktik chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.	1-11-sinflar	Maktab Rahbariyati, sinf rahbarlar
4.	Pedagoglar uchun "Xavfsiz ta'lim muhitini yaratish" mavzusida seminar tashkil etish.	"Xavfsiz ta'lim muhitini yaratish" bo'yicha amaliy seminar seminar dasturini ishlab chiqish; amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, keyslarni muhokama qilish; maktab uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.	Pedagoglar	Maktab rahbariyati
5.	Ota-onalar bilan "Ijobiy ota-onalik va maktabga moslashuv" mavzusida uchrashuvlar o'tkazish.	Ota-onalarga zo'ravonliksiz tarbiya, bolaning emotsional qo'llab-quvvatlanishi bo'yicha tavsiyalar berish. "Ijobiy ota-onalik" tarbiya modeli dasturlari asosida ijobiy tarbiya usullari bo'yicha amaliy keyslar, mashg'ulotlar o'tkazish; individual savollarga javob berish va psixologik maslahatlar tashkil etish.	Ota-onalar	Sinf rahbarlar, Mahalla faollari
Oktabr – "Pedagogik jamoaning psixologik salomatligi va barqaror ta'lim muhiti" oyligi				
6.	Pedagoglarning psixologik farovonligi va kasbiy charchash darajasini baholash.	Pedagoglarning emotsional holati, stress va kasbiy charchash darajasi psixodiagnostik metodikalar orqali baholash, tahlil natijalari asosida psixologik qo'llab-quvvatlash ishlarini tashkil etish.	Pedagoglar	Maktab rahbariyati

		Kasbiy stress holatlari aniqlangan pedagoglar bilan korreksion mashg'ulotlar olib borish.		
7.	Pedagoglar uchun treninglarini tashkil etish.	Stressni boshqarish, emotsional o'zini tiklash, kasbiy barqarorlik va psixologik rezidentlikni rivojlantirishga qaratilgan amaliy treninglar o'tkazish.	Pedagoglar	Maktab rahbariyati
8.	Qiyin moslashayotgan o'quvchilar uchun erta aralashuv dasturini amalga oshirish.	Skrining natijalari asosida xavf guruhiga kiruvchi o'quvchilar bilan individual va guruhiy korreksion mashg'ulotlar tashkil etish; ota-onalar va sinf rahbarlari bilan hamkorlikda psixologik hamrohlik rejasini amalga oshirish hamda rivojlanish dinamikasi muntazam kuzatib borish.	1-va 5-sinflar	Sinf rahbarlar
9.	Inklyuziv ta'lim muhitidagi o'quvchilarning psixologik ehtiyojlarini baholash.	Inklyuziv ta'limga jalb qilingan o'quvchilarning psixologik, ijtimoiy va ta'limiy ehtiyojlarini kompleks baholash; nogironligi bo'lgan, repatriant, migrant va ijtimoiy xavf guruhiga mansub bolalar uchun individual psixologik qo'llab-quvvatlash rejasini ishlab chiqish; maxsus pedagog va sinf rahbarlari uchun psixologik tavsiyalar berib borish.	Inklyuziv ta'limga jalb qilingan o'quvchilar	Sinf rahbarlar, Maxsus pedagog
10.	Ota-onalar uchun "Oilada psixologik xavfsiz muhit va ijobiy tarbiya" mavzusida seminarlar tashkil etish.	Ijobiy ota-onalik, zo'ravonliksiz tarbiya, bolalarni himoya qilish va emotsional qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy tavsiyalar berish. "Ijobiy ota-onalik" tarbiya modeli dasturlari asosida ijobiy tarbiya usullari bo'yicha amaliy keyslar, mashg'ulotlar o'tkazish.	Ota-onalar	Sinf rahbarlar, Mahalla va ota-onalar qo'mitasi
Noyabr -"Zo'ravonlikdan holi maktab va bolalarni himoya qilish" oyligi				
11.	Maktabda "Xavfsiz maktab – zo'ravonlikdan holi muhit" haftaligini tashkil etish.	"Xavfsiz maktab – zo'ravonlikdan holi muhit" haftaligini tashkil etish bo'yicha maktab dasturini ishlab chiqish;	1-11-sinflar	Maktab rahbariyati, Sinf rahbarlar,

		barcha sinflarda bullying, kiberbullying, diskriminatsiya va zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan aksiyalar, davra suhbatlari, treninglar va fleshmoblar o‘tkazish; yosh xususiyatlariga mos interaktiv treninglar, rolli o‘yinlar, keys-tahlillar va multimedia taqdimotlarini o‘tkazish.		Inspektor-psixolog
12.	Bolalarni himoya qilish bo‘yicha erta aniqlash tizimi joriy etish.	Sinflarda psixologik iqlim va xavfsiz muhit diagnostikasini o‘tkazish; zo‘ravonlik, beparvolik, ekspluatatsiya va tazyiq xavfini aniqlash uchun skrining, kuzatuv va murojaatlarni qabul qilish mexanizmini yo‘lga qo‘yish; anonim anketa va psixologik kuzatuv asosida sinf muhitini baholash, ijobiy munosabatlarni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.	1-11-sinflar	Maktab rahbariyati, Sinf rahbarlar, Inspektor-psixolog
13.	Tajovuzkor va xavfli xulq-atvorga moyil o‘quvchilar bilan korreksion ishlarni tashkil etish.	Agressiya, autoagressiya va deviant xulq belgilari aniqlangan o‘quvchilar uchun individual va guruhiy korreksion mashg‘ulotlar o‘tkazish.	Xavf guruhiga mansub o‘quvchilar	Sinf rahbarlar, Inspektor-psixolog
14.	Kiberxavfsizlik va raqamli madaniyat bo‘yicha profilaktik tadbirlar amalga oshirish.	Internetda xavfsiz muloqot, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, kiberbullying va internet qaramligining oldini olish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish.	5-11-sinflar	Sinf rahbarlar, Informatika fani o‘qituvchilari
15.	Pedagoglar uchun “Bolalarni himoya qilish va xavf belgilari” mavzusida amaliy seminarlar tashkil etish.	Pedagoglarga zo‘ravonlik, psixologik jarohat, suitsidal xavf va ekspluatatsiya belgilarini aniqlash hamda tegishli xizmatlarga yo‘naltirish algoritmlarini o‘rgatish.	Pedagoglar	Maktab rahbariyati, Sinf rahbarlar, Inspektor-psixolog
16.	Ota-onalar uchun “Oilada xavfsiz va qo‘llab-	Ijobiy ota-onalik, zo‘ravonliksiz tarbiya, bolalarning huquqlari, emotsional qo‘llab-quvvatlash	Ota-onalar	Sinf rahbarlar,

	quvvatlovchi muhit” mavzusida psixologik seminar o‘tkazish.	va ishonchli muloqot bo‘yicha amaliy tavsiyalar berish.		Mahalla va ota-onalar qo‘mitasi
Dekabr – “Muvaffaqiyat formulasi: psixologik barqarorlik va shaxsiy rivojlanish” oyligi				
17.	“Mening kuchli tomonlarim” mavzusida shaxsiy rivojlanish treninglarini tashkil etish.	O‘quvchilarning qobiliyati, o‘zini anglashi, o‘zini baholashi va shaxsiy resurslarini rivojlantirishga qaratilgan interaktiv mashg‘ulotlar o‘tkazish; mashg‘ulot natijalarini tahlil qilish, o‘quvchilarning o‘z kuchli tomonlaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini mustahkamlash hamda shaxsiy rivojlanishga oid keyingi maqsadlarni belgilashga ko‘maklashish.	5-11-sinflar	Sinf rahbarlar
18.	Ijtimoiy-emotsional ta’lim doirasida stressni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish.	Emotsiyalarni boshqarish, stressni yengish, psixologik barqarorlik va o‘zini nazorat qilish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish.	5-11-sinflar	Sinf rahbarlar, Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari
19.	Hayotiy ko‘nikmalar bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish.	Har bir sinfda interaktiv treninglar (rolli o‘yin, keys-tahlil, vaziyatli mashqlar, guruhli muhokama va debatlar) o‘tkazish. Bunda: qaror qabul qilish, rad etish ko‘nikmalari, tanqidiy fikrlash, vaqtni boshqarish, muammoni hal qilish va xavfsiz xulq-atvor ko‘nikmalarini rivojlantirish; ishtirokchilarning hayotiy ko‘nikmalar rivojlanish dinamikasini davriy monitoring qilish va xavf guruhiga kiruvchi o‘quvchilar bilan qo‘shimcha individual ishlar olib borish.	7-11-sinflar	Sinf rahbarlar
20.	Pedagoglar uchun “Psixologik barqarorlik va emotsional so‘nish	Emotsional o‘zini tiklash, stressni boshqarish va kasbiy resurslarni rivojlantirish bo‘yicha treninglar tashkil etish;	Pedagoglar	Maktab rahbariyati

	profilaktikasi” mavzusida amaliy seminar o‘tkazish.	pedagoglarning ichki psixologik resurslarini mustahkamlash, o‘zini qo‘llab-quvvatlash va emotsional muvozanatni saqlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berish.		
21.	Xavf guruhiga mansub o‘quvchilar bilan individual psixologik hamrohlik ishlari kuchaytirish.	Individual korreksion mashg‘ulotlar, psixologik maslahatlar va oila bilan hamkorlik asosida psixologik qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirish; ota-onalar uchun “Farzand muvaffaqiyatida oilaning o‘rni” mavzusida psixologik seminar tashkil etish; ijobiy ota-onalik, farzandni rag‘batlantirish, stresssiz muloqot va psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar berish.	Xavf guruhiga mansub o‘quvchilar	Ota-onalar, Sinf rahbarlar, maxsus pedagog
Yanvar - “Men va mening oilam” oyligi				
22.	Xavf guruhiga mansub oilalar bilan individual psixologik maslahatlar tashkil etish.	Barvaqt aniqlash natijalari asosida xavf guruhiga mansub oilalar aniqlash; oilaning psixologik va ijtimoiy ehtiyojlari baholash, individual psixologik maslahatlar o‘tkazish, zaruratga ko‘ra uy tashriflarini amalga oshirish; oila, sinf rahbari va tegishli mutaxassislar ishtirokida psixologik hamrohlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish va muntazam monitoring qilish.	O‘quvchilar va ota-onalar	Ota-onalar, Sinf rahbarlar, Inspektor-psixolog
23.	“Maktab, oila va mahalla” hamkorligida bola manfaati uchun davra suhbatini tashkil etish.	Maktab, oila va mahalla o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini muhokama qilish, bolalarni qo‘llab-quvvatlash ishlarini tashkil etish bo‘yicha psixologik ma’ruzalar, keyslar tahlillarini o‘tkazish; maslahatlar orqali oilaviy mojarolarning oldini olish va bolani qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rish; samarali muloqot, nizolarni konstruktiv hal etish va zo‘ravonliksiz tarbiya usullari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish.	Ota-onalar	Mahalla va ota-onalar, sinf rahbarlar, Inspektor-psixolog

24.	Bolalar huquqlari va ularni himoya qilish bo'yicha targ'ibot tadbirlari tashkil etish.	Bolalar huquqlari, xavfsiz ta'lim muhiti, zo'ravonlik va tazyiq holatlarida murojaat qilish tartibi hamda ishonch telefonlari haqida axborot berish; interaktiv mashg'ulotlar va huquqiy targ'ibot tadbirlari tashkil etish orqali o'quvchilarning bilim va xavfsiz xulq-atvor ko'nikmalarini mustahkamlash bo'yicha tavsiyalar berish.	1-11-sinflar	Sinf rahbarlar, Inspektor- psixolog
25.	Pedagoglar uchun "Oila bilan samarali muloqot va hamkorlik texnologiyalari" mavzusida seminar tashkil etish.	Pedagoglarning ehtiyojlarini aniqlash, seminar dasturini ishlab chiqish, qiyin oilalar bilan ishlash, konfidensiallik tamoyillariga rioya qilish, konstruktiv muloqot o'rnatish va hamkorlik algoritmlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazish; vaziyatli keyslarni muhokama qilish orqali pedagoglarga oila bilan hamkorlikni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish.	Pedagoglar	Maktab rahbariyati, Ota-onalar
Fevral – "Biz zararli odatlarga qarshimiz" oyligi				
26.	O'quvchilar o'rtasida zararli odatlar va xavfli xulq-atvor omillarini aniqlash bo'yicha psixologik monitoring o'tkazish.	O'quvchilar o'rtasida zararli odatlar, xavfli xulq-atvor va tengdoshlar ta'siri bilan bog'liq omillarni aniqlash maqsadida anonim psixologik so'rovnoma o'tkazish; so'rovnoma natijalari asosida xavf guruhiga kiruvchi o'quvchilar uchun profilaktik qo'llab-quvvatlash choralari belgilash.	5-11-sinf o'quvchilari	Sinf rahbarlar
27.	"Sog'lom turmush tarzi va sog'lom tanlov" mavzusida interaktiv treninglar tashkil etish.	O'quvchilar orasida "Rad etish ko'nikmalari", "Mening tanlovim — sog'liq" kabi psixologik trening mashg'ulotlarini o'tkazish; maktab o'quvchilari orasida giyohvandlik vositalarining iste'molini oldini olish uchun zarur hollarda narkolog maslahatlari amaliyotini joriy etish;	5-11-sinf o'quvchilari	Sinf rahbarlar

		elektron sigareta, giyohvand moddalarning zarari bo'yicha profilaktik tadbirlar tashkil etish; mutaxassislar ishtirokida ma'ruza, videoroliklar namoyishi va savol-javoblar o'tkazish, zararli odatlarning jismoniy va psixologik oqibatlarini tushuntirish.		
28.	Internet qaramligi va raqamli xavfsizlik bo'yicha psixologik profilaktika ishlarini amalga oshirish.	O'quvchilarning raqamli texnologiyalardan foydalanish holatini baholash, ekran vaqtini me'yorlash, internet qaramligi, kiberbulling, onlayn firibgarlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tashkil etish.	5-11-sinf o'quvchilari	Ota-onalar, Sinf rahbarlar, Inspektor-psixolog
29.	Xavf guruhiga kiruvchi o'quvchilar bilan individual profilaktik ishlar olib borish.	Psixologik maslahat, motivatsion intervyu, korreksion mashg'ulotlar va oila bilan hamkorlik asosida individual yordam ko'rsatish; zaruratga ko'ra ota-onalar, sinf rahbari bilan birgalikda qo'llab-quvvatlash rejasini yangilash.	Xavf guruhiga mansub o'quvchilar	Ota-onalar, Sinf rahbarlar, Inspektor-psixolog
30.	Pedagoglar uchun "O'quvchilarda zararli odatlarning ilk belgilari va profilaktikasi" mavzusida seminar tashkil etish.	Zararli odatlar va deviant xulq-atvorning ilk belgilariga erta aniqlash, to'g'ri muloqot o'rnatish hamda zarur holatlarda tegishli mutaxassislarga yo'naltirish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy seminar o'tkazish; psixoaktiv moddalar iste'moli, internet qaramligi va xavfli xulq-atvorning ilk belgilari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazish.	Pedagoglar	Maktab rahbariyati, tibbiy xodimi
Mart – "Mening eng yaxshi kunlarim" oyligi				
31.	O'quvchilarning psixologik farovonligi va hayotdan qoniqish darajasini baholash.	O'quvchilarda emotsional holat, xavotirlanish darajasi, maktab hayotidan qoniqish, tengdoshlar va kattalar bilan munosabatlarni aniqlashga qaratilgan psixologik so'rovnoma o'tkazish. (Lyusher, Havotirlanish, Luskanova);	5–11-sinf o'quvchilari	Sinf rahbarlar

		so'rovnoma, suhbat va kuzatuv natijalari asosida psixologik qo'llab-quvvatlashga ehtiyoji bor o'quvchilar uchun tavsiyalar ishlab chiqish, zaruratga ko'ra individual maslahatlar, korreksion mashg'ulotlar va ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini rejalashtirish.		
32.	Hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tashkil etish.	O'quvchilarda qaror qabul qilish, maqsad qo'yish, vaqtni samarali boshqarish, tanqidiy fikrlash va mas'uliyatli xulq-atvor ko'nikmalari rivojlantirish bo'yicha interaktiv mashg'ulot o'tkazish; O'quvchilarga shaxsiy maqsadlarni rejalashtirish, vaqtni to'g'ri tashkil etish, konstruktiv muloqot qilish va mustaqil ravishda asoslangan qaror qabul qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.	9–11-sinf o'quvchilari	Sinf rahbarlar
33.	Xavf guruhiga mansub o'quvchilar uchun psixologik qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish.	Xavf guruhiga mansub o'quvchilar bilan individual psixologik qo'llab-quvvatlash rejasi asosida psixologik maslahat, korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulot va motivatsion suhbatlar o'tkazish; individual maslahatlar, korreksion mashg'ulotlar va oila bilan hamkorlik asosida psixologik hamrohlikni ta'minlash.	Xavf guruhiga mansub o'quvchilar	Ota-onalar, Maxsus pedagog
34.	Pedagoglar uchun "Ijobiy sinf muhitini shakllantirish va o'quvchilar motivatsiyasini oshirish" mavzusida amaliy mashg'ulot tashkil etish.	Sinfda ijobiy psixologik muhitni shakllantirish, o'quvchilar motivatsiyasini oshirish, konfliktlarning oldini olish va konstruktiv muloqotni tashkil etish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, keyslar muhokama qilinib, pedagoglarga amaliy tavsiyalar berish.	Pedagoglar	Maktab rahbariyati
35.	O'quvchilar ishtirokida "Mening eng yaxshi kunim" ijtimoiy-psixologik aksiyasi tashkil etiladi.	Aksiya dasturini ishlab chiqish; o'quvchilar ishtirokida ijobiy hayotiy tajribalarni targ'ib qilishga qaratilgan ijodiy tanlovlar, fleshmoblar, davra suhbatlarini tashkil etish, mehr-	1–11-sinf o'quvchilari	Sinf rahbarlar

		oqibat, hamjihatlik va o‘zaro hurmatni mustahkamlashga qaratilgan interaktiv mashg‘ulotlar o‘tkazish; ishtirokchilar fikrlari o‘rganilib, aksiya natijalarini tahlil qilish hamda eng yaxshi tashabbuslarni ommalashtirish.		
April – “Ijobiy o‘zgarishlar oyligi” oyligi				
36.	O‘quvchilarning qobiliyati, qiziqishi va rivojlanish ehtiyojlarini kompleks baholash ishlarini amalga oshirish.	O‘quvchilarning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanish ko‘rsatkichlari psixodiagnostik metodikalar, kuzatuv, intervyu va elektron monitoring natijalari asosida baholash; qobiliyat va qiziqishlarini aniqlash, tavsiyalar ishlab chiqish.	1–11-sinf o‘quvchilari	Sinf rahbarlar, Fan o‘qituvchilari
37.	“Liderlik va samarali muloqot” mavzusida ijtimoiy-psixologik treninglar tashkil etiladi.	O‘quvchilarning liderlik va kommunikativ ko‘nikmalari, jamoada ishlash, muloqot madaniyati, mas’uliyatli qaror qabul qilish va nizolarni konstruktiv hal etish bo‘yicha interaktiv treninglar tashkil etish; amaliy keyslar va rolli o‘yinlar o‘tkazish, ishtirokchilarning shakllangan kompetensiyalari baholash.	7–11-sinf o‘quvchilari	Sinf rahbarlar
38.	O‘quvchilarda kasbiy qiziqish va kelajak kasbini tanlash kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar tashkil etish.	Kasbiy qiziqishlar psixodiagnostik metodikalar orqali baholash, o‘quvchilar kasblar olami va mehnat bozori ehtiyojlari bilan tanishtirish; individual psixologik maslahatlar o‘tkazish, kasb tanlash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish hamda har bir o‘quvchi uchun kasbiy rivojlanish bo‘yicha tavsiyalar berish.	8–11-sinf o‘quvchilari	Sinf rahbarlar
39.	Inklyuziv ta’lim muhitida tahsil olayotgan o‘quvchilarni	Inklyuziv ta’lim ishtirokchilarining psixologik ehtiyojlari inobatga olingan holda individual va guruhviy psixologik mashg‘ulotlar tashkil etish;	Inklyuziv ta’lim ishtirokchilari	Sinf rahbarlar, Maxsus pedagog

	psixologik qo'llab-quvvatlash ishlarini kuchaytirish.	pedagoglar va ota-onalarga psixologik tavsiyalar berish, maxsus pedagoglar bilan hamkorlikda psixologik hamrohlikni amalga oshirish hamda rivojlanish dinamikasi muntazam monitoring qilish.		
40.	Pedagoglar uchun "O'quvchilar qobiliyatini aniqlash va rivojlantirishning psixologik asoslari" mavzusida mashg'ulotlar o'tkazish.	Pedagoglarning ehtiyojlarini aniqlash va ushbu asosda seminar dasturini ishlab chiqish; o'quvchilar qobiliyati va iqtidorini erta aniqlash, differensial yondashuv va shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, keyslarni muhokama qilgan holda, pedagoglarga amaliy tavsiyalar berish.	Pedagoglar	Maktab rahbariyati
41.	Ota-onalar uchun "Farzand qobiliyatini rivojlantirishda oilaning o'rne" mavzusida psixologik seminar tashkil etish.	bolaning qobiliyati va qiziqishini aniqlash, iqtidorini qo'llab-quvvatlash, ortiqcha psixologik bosimning oldini olish va ijobiy motivatsiyani shakllantirish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tashkil etish; psixologik tavsiyalar berish hamda oila va maktab hamkorligini kuchaytirish bo'yicha keyingi ishlarni rejalashtirish.	Ota-onalar	Maktab rahbariyati, Mahalla, Ota-onalar qo'mitasi
May – "Kelajakni rejalashtirish" oyligi				
42.	Bitiruvchi sinf o'quvchilarining kasbiy qiziqishlari va kelajak rejalari bo'yicha psixologik diagnostika o'tkazish.	O'quvchilarning kasbiy qiziqishlari va qobiliyatlarini psixodiagnostik metodikalar, kasbiy qiziqish testlari hamda individual suhbatlar orqali baholash; natijalar tahlil qilinib, kasbiy moyillik aniqlash, har bir o'quvchi uchun psixologik xulosa va kasb tanlash bo'yicha individual tavsiyalar berish.	9-11-sinf o'quvchilari	Sinf rahbarlar
43.	"Kasb tanlashda ongli qaror qabul qilish" mavzusida psixologik treninglar tashkil etish.	Hayotiy ko'nikmalar asosida qaror qabul qilish, shaxsiy imkoniyatlarni baholash va mehnat bozori talablari haqida amaliy mashg'ulotlar o'tkazish.	9-11-sinf o'quvchilari	Sinf rahbarlar

44.	Imtihonlarga psixologik tayyorgarlik va stressni boshqarish bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etish.	Imtihon oldi psixologik holatni baholash; emotsional barqarorlikni mustahkamlash, stressni boshqarish, relaksatsiya usullari va imtihon vaqtida o'zini samarali boshqarish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazish.	9-11-sinf o'quvchilari	Sinf rahbarlar
45.	Xavf guruhiga mansub bitiruvchilar uchun individual psixologik hamrohlik ishlarini amalga oshirish.	Xavf guruhiga mansub bitiruvchilarning psixologik holati qayta baholash; motivatsion suhbatlar va psixologik maslahatlar o'tkazish, ota-onalar va sinf rahbarlari bilan hamkorlikda psixologik qo'llab-quvvatlash choralarini amalga oshirish.	Xavf guruhiga mansub o'quvchilar	Sinf rahbarlar, Ota-onalar
46.	O'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish.	Tanqidiy fikrlash, muloqot, jamoada ishlash, ijodkorlik va raqamli madaniyat ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha treninglar tashkil etish.	7-11-sinf o'quvchilari	Fan o'qituvchilari
47.	Pedagoglar uchun "Imtihon davrida o'quvchilarni psixologik qo'llab-quvvatlash" mavzusida seminar tashkil etish.	Imtihon oldi stressini kamaytirish, o'quvchilar motivatsiyasini saqlash va psixologik qo'llab-quvvatlash algoritmlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazish; pedagoglarga amaliy tavsiyalar berish.	Pedagoglar	Maktab rahbariyati
Iyun – "Psixologik xizmat samaradorligini baholash" oyligi				
48.	Ota-onalar uchun "Yozgi ta'tilda bolaning psixologik xavfsizligi" mavzusida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.	Bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, internet xavfsizligi, suzish havzalari, yo'l harakati va boshqa xavfli vaziyatlar profilaktikasi bo'yicha shuningek, maktabning ijtimoiy tarmoqlari orqali giyohvandlikdan holi ta'lim muassasasi konsepsiyasi asosida tavsiyalar beri borilishini ta'minlash.	Ota-onalar	Sinf rahbarlar, Ota-onalar
49.	O'quv yili davomida amalga oshirilgan psixologik xizmat ishlari yuzasidan tahliliy hisobot tayyorlash.	Yil davomida olib borilgan psixodiagnostika, profilaktika, korreksiya, rivojlantirish, maslahat va ma'rifiy tadbirlar natijalarini umumlashtirish;		Maktab rahbariyati

		reja ijrosi, qamrov darajasi va erishilgan natijalarni tahlil qilish; statistik ma'lumotlar, diagramma va tahliliy xulosalar asosida yillik hisobotni rasmiylashtirish.		
50.	Xavf guruhiga mansub o'quvchilar bilan amalga oshirilgan ishlar samaradorligi bo'yicha monitoring o'tkazish va hisobot tayyorlash.	Xavf guruhiga kiritilgan o'quvchilarning yil boshi va yil yakunidagi holatini qiyosiy tahlil qilish; individual ish rejalari ijrosi, profilaktik va korreksion tadbirlar samaradorligini baholash; ijobiy dinamika, muammoli holatlar va kelgusi yil uchun takliflarni o'z ichiga olgan tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash.		Maktab rahbariyati

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirining
2026-yil 6-avgustdagi
288-son buyrug'iga
6-ILOVA

**Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining milliy ohanglar orqali tinglash madaniyatini
rivojlantirishga yo'naltirilgan
o'zbek milliy mumtoz navolarining haftalik taqsimoti**

T/r	Hafta	Asar nomi	Muallif / manba	Ijrosi	Annotatsiya
1	1-hafta	“Ohista”	O'zbek xalq kuyi	O'zbek xalq cholg'ulari orkestri ijrosida	O'zbek xalq cholg'ulari orkestri ijrosidagi “Ohista” asari raqsobop doira usulida rivojlanadi. Ushbu asar orqali o'quvchilar milliy ohang, qo'shnay sadosi va ansambl ijrosining badiiy xususiyatlari bilan tanishadilar.
2	2-hafta	“Xumor”	F.Sodiqov musiqasi	Changchilar ansambli ijrosida	“Xumor” o'zbek mumtoz musiqasining nafis namunalaridan biri hisoblanadi. Asar chang cholg'ulari ansambli ijrosida yangraydi, mayin va lirik ohanglari inson kechinmalarini ifodalaydi. Kuy o'quvchilarning estetik didini rivojlantirib, milliy musiqa merosini qadrlashga o'rgatadi.
3	3-hafta	“Dutorim”	S.Kalonov musiqasi	O'zbek xalq cholg'ulari orkestri ijrosida	O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, bastakor Saidjon Kalonov ijodiga mansub asar o'zbek musiqa merosining durdona asarlaridan hisoblanadi. Asar o'quvchilarda milliy cholg'ular orkestri ohangi, dutor tembri, milliy ohanglar jilosini farqlaydi va xalq an'alariga hurmat tuyg'ularini shakllantiradi.
4	4-hafta	“Aziza”	Qardosh xalqlar musiqasi	O'zbek xalq cholg'ulari orkestri ijrosida	Nafis go'zallikni tarannum etgan ushbu asar tabiat va inson uyg'unligini tasvirlaydi. Turli milliy cholg'ular tembrining

					uyg'unligi o'quvchilarda orkestr ijrochiligiga qiziqish uyg'otadi.
5	5-hafta	"Ne navo"	O'zbek xalq kuyi	Qashqar rubob cholg'usi ijrosida	Asar o'zbek xalqining mashhur raqs va qo'shiq janridagi kuylaridan to'plangan bo'lib, jo'shqin ritmi va tantanavor ohangi bilan ajralib turadi. Asar o'quvchilarda milliy cholg'ular orkestri ohangi, milliy raqs san'atiga qiziqish, ritmni his qilish va xalq an'alariga hurmat tuyg'ularini shakllantiradi.
6	6-hafta	"Qo'shchinor"	O'zbek xalq kuyi	Qonun cholg'usi ijrosida	O'zbek milliy musiqa merosidagi lirika va xalqona ohanglarni o'zida mujassam etgan kuy yoki qo'shiq nomi sifatida tanilgan. Mazmunan sog'inch, muhabbat, vatan, tabiat va insoniy tuyg'ularni ifodalaydi. O'zbek xalq musiqasi an'alariga tayangan, milliy kuy va usullar bilan boyitilgan. Ijrosi ko'pincha dutor, tanbur, doira kabi milliy cholg'ular jo'rligida yoki vokal ijroda yangraydi.
7	7-hafta	"Mushkuloti Segoh"	Shashmaqom	O'zbek xalq cholg'ulari orkestri ijrosida	"Segoh" maqom yo'llarining lirik va murakkab namunalaridan biridir. Uning ohang tuzilishi chuqur hissiyotlarni ifodalaydi. Asar o'quvchilarda musiqiy tafakkur, tinglash madaniyati va estetik didni rivojlantirishga yordam beradi.
8	8-hafta	"Bayram uverturasi"	Farhod Alimov	O'zbek xalq cholg'ulari orkestri ijrosida	"Bayram uverturasi" tantanavor ruhdagi orkestr asari bo'lib, yorqin musiqiy obrazlar bilan ajralib turadi. Asar orkestr cholg'ularining imkoniyatlarini namoyish etadi va o'quvchilarda milliy professional musiqa haqida tushuncha hosil qiladi.
9	9-hafta	"Marg'ilon qizlari"	M.Mirzayev musiqasi	O'zbek xalq cholg'ulari orkestri ijrosida	"Marg'ilon qizlari" musiqasi o'zbek xalqimizning qadimiy nikoh marosim qo'shiqlaridan biridir. Qashqar rubobi va ansambl jo'rligida ijro etilgan. Asar o'quvchilarni qashqar rubobi ovozini boshqa torli cholg'ular ovozidan farqlashga o'rgatadi.

10	10-hafta	“Nasri Segoh”	Shashmaqom	O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri ijrosida	“Nasri segoh” maqom turkumining salobatli va tantanavor qismlaridan biridir. Vazmin rivojlanishi va boy ohanglari maqom san’atining yuksakligini ko‘rsatadi. Tinglash orqali o‘quvchilarning musiqiy tahlil qilish qobiliyati rivojlanadi.
11	11-hafta	“Yurtim jamoli”	Avaz Mansurov musiqasi	O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri ijrosida	O‘zbek mumtoz musiqasining nafis namunalari jamlangan asar kompozitor tomonidan qo‘shimcha jilolar bilan bezatilgan. Uning mayin va lirik ohanglari inson kechinmalarini ifodalaydi. Kuy o‘quvchilarning estetik didini rivojlantirib, milliy musiqa merosini qadrlashga o‘rgatadi.
12	12-hafta	“Surxon navolari”	O‘zbek xalq kuyi	O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri ijrosida	“Surxon navolari” Surxon vohasining nafis musiqa an’alarini aks ettiruvchi xalq kuylarining jamlanmasidir. Uning yengil, o‘ynoqi ohanglari milliy ijrochilik uslubini namoyon etadi. Asar o‘quvchilarda xalq musiqasiga qiziqish uyg‘otadi.
13	13-hafta	“Umid”	E.Salixov musiqasi	Changchilar ansambli ijrosida	“Umid” — Enmark Salixov bastalagan lirik qo‘shiq bo‘lib, uni O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov yuksak badiiy mahorat bilan ijro etgan. Ammo asar turli cholg‘u ovozlari ham o‘zgacha jilo sochadi. Asarda insonning sog‘inch, umid, muhabbat va visolga ishonch tuyg‘ulari nozik musiqiy ohanglar orqali ifodalangan. Mazkur asar o‘zbek estrada san’atining lirik durdonalaridan biri.
14	14-hafta	“Mirzadavlat”	Shashmaqom	Maqom ansambli ijrosida	“Mirzadavlat” maqom yo‘li asari bo‘lib, sokin, chuqur va falsafiy mazmunga ega. Uning lirik ohanglari inson ichki kechinmalarini ifodalaydi. Asarni tinglash o‘quvchilarda musiqiy tafakkur va estetik qarashlarni shakllantiradi.
15	15-hafta	“O‘zbekiston madhi”	O‘zbek xalq kuyi	O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri ijrosida	“O‘zbekiston madhi” insonparvarlik, do‘stlik va tinchlik g‘oyalarini tarannum etadi. Kuyining sodda va ta’sirchanligi o‘quvchilarda ezgulik, mehr-oqibat va xalqlar o‘rtasidagi hamjihatlik tushunchalarini mustahkamlaydi.

16	16-hafta	“Na bo‘ldi...”	Xalq kuyi	O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri ijrosida	“Na bo‘ldi...” — o‘zbek mumtoz ashula san’atining yuksak namunalaridan biri bo‘lib, katta ashula janriga mansub. Ushbu asarda insonning ichki kechinmalari, dard-u hasrati, sog‘inch va hayotiy tuyg‘ulari chuqur ifodalangan.
17	17-hafta	“Beqasam to‘nlar kiyib...”	O‘zbek xalq kuyi	O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri ijrosida	O‘zbek xalq lirik qo‘shig‘i bo‘lib, unda muhabbat, sog‘inch va hijron tuyg‘ulari ifodalangan. Asar xalq orasida yaratilgan bo‘lib, samimiy ohangi va ta’sirchan kuy yo‘li bilan ajralib turadi. Qo‘shiq xalqimizning boy musiqiy merosi namunalaridan biridir.
18	18-hafta	“Baxchakurt”	M.Bafojev musiqasi	O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri ijrosida	“ Baxchakurt ” asari ona yurt go‘zalligi va xalqning bunyodkorligini madh etadi. Tantanavor ohanglar va ravon kuy rivoji o‘quvchilarda milliy g‘urur, vatanparvarlik va musiqiy tafakkurni shakllantiradi.
19	19-hafta	“Nasri Segoh”	Shashmaqom	T.Alimatov ijrosida	Segoh maqomi — o‘zbek va tojik mumtoz musiqa an’alaridagi eng mashhur maqomlardan biri bo‘lib, Shashmaqom tarkibiga kiradi. Segoh so‘zi fors tilidan olingan bo‘lib, " uchinchi parda " degan ma’noni anglatadi. Bu maqom odatda mayin, lirika va chuqur hissiyotlarni ifodalaydi.
20	20-hafta	“Nasrullovi”	Shashmaqom	Maqom ansambli ijrosida	“Nasrullovi” Shashmaqomning murakkab va salobatli namunalaridan biridir. Asar ohang rivoji, uslubiy boyligi va badiiy ifodasi bilan ajralib turadi. Tinglash jarayoni o‘quvchilarning musiqiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
21	21-hafta	Dutor taronalari	Habibulla Rahimov	O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri ijrosida	Ushbu asar Dutor cholg‘u ovozining go‘zalligini ritmik harakatlar bilan ifodalaydi. Orkestr bo‘yoqlari va yorqin musiqiy obrazlar o‘quvchilarda musiqiy uslub

					tushunchasini hosil qiladi, shu bilan birga milliy iftixor tuyg'ularini shakllantiradi.
22	22-hafta	Bayram sayli	Xalq kuylari jamlanmasi	O'zbek xalq cholg'ulari orkestri ijrosida	"Bayram sayli" xalq sayillari va tantanalar kayfiyatini aks ettiruvchi orkestr asaridir. Undagi jo'shqin ritm va rang-barang cholg'u sadolari o'quvchilarga orkestr san'atining o'ziga xosligini tushuntiradi.
23	23-hafta	Xorazm Muhammasi Bayot	Shashmaqom	Maqom ansambli ijrosida	" Xorazm Muhammasi Bayot " Xorazm maqom san'atining go'zal namunalaridan biridir. Ushbu asar o'zining jozibador ohanglari, murakkab kuy tuzilishi va yuksak ijrochilik mahorati bilan ajralib turadi. Asarda milliy musiqa an'analari, nozik hissiyotlar va badiiy ifoda uyg'unlashgan.
24	24-hafta	"Ra'no"	Ikrom Akbarov musiqasi	B.Zokirov ijrosida	"Ra'no" o'zbek estrada san'atining mashhur lirik qo'shiqlaridan biri bo'lib, musiqasi Ikrom Akbarovga, she'ri S. Akbariyga mansub. Qo'shiqni O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov yuksak badiiy mahorat bilan ijro etgan. Kuyning ravonligi, nafis melodiysi va lirik xarakteri tinglovchida iliq hissiyotlar uyg'otadi. Ushbu asar o'zbek estrada musiqasining klassik namunalaridan biri bo'lib, bugungi kunda ham o'z qadrini saqlab kelmoqda.
25	25-hafta	"Gul sochar"	O'zbek xalq kuyi	O'zbek xalq cholg'ulari orkestri ijrosida	" Gul sochar " nafis kuy va milliy ohanglar uyg'unligiga ega asardir. Uning go'zal melodiysi o'quvchilarda kompozitorlik ijodiga qiziqish, musiqiy did va Vatanga muhabbat tuyg'ularini rivojlantiradi.
26	26-hafta	Xalq kuylari jamlanmasi	O'zbek xalq kuylari	O'zbek xalq cholg'ulari orkestri ijrosida	Xalq kuylari jamlanmasi bahor va yangilanish g'oyalarini ifodalovchi yorqin asardir. Turli cholg'ular uyg'unligi orqali orkestrning keng imkoniyatlari namoyon bo'ladi. Asar bayramona kayfiyat va milliy ruhni aks ettiradi.

27	27-hafta	Bahor vals	M.Mirzayev	O'zbek xalq cholg'ulari orkestri ijrosida	"Bahor vals" bahor faslining kirib kelishini ifodalovchi bolalar xalq qo'shig'idir. Sodda ohangi va quvnoq xarakteri bolalarga yaqin. Asar tabiatga mehr, go'zallikni his qilish va ijodkorlikni rivojlantiradi.
28	28-hafta	Gul mavsumi	O'zbek xalq kuyi	O'zbek xalq cholg'ulari orkestri ijrosida	Gul mavsumi" nafis kuy va milliy ohanglar uyg'unligiga ega asardir. Uning go'zal melodiya o'quvchilarda kompozitorlik ijodiga qiziqish, musiqiy did va yurtga muhabbat tuyg'ularini rivojlantiradi.
29	29-hafta	Cho'li iroq	Shashmaqom	Nay cholg'usi ijrosida	"Cho'li Iroq" — Iroq maqom yo'lining cholg'u qismlaridan biri sifatida tanilgan. U o'zining keng ohangli, salobatli va chuqur falsafiy kayfiyati bilan ajralib turadi. "Cho'li Iroq" orqali maqom san'atining boyligi, falsafiy mazmuni va milliy musiqamizning yuksak badiiy imkoniyatlarini his etishingiz mumkin.
30	30-hafta	Andijon polkasi	Orif Garmon musiqasi	O'zbek milliy cholg'ulari ansamli ijrosida	"Andijon polkasi" — o'zbek xalq cholg'u kuyi va shu nomdagi raqs kuyidir. Kuy o'zining tezkor ritmi, jozibali ohangi va nafis ijro uslubi bilan o'zbek musiqa madaniyatida muhim o'rin egallaydi.
31	31-hafta	Aliqambar	O'zbek xalq kuyi	Maqom ansambli ijrosida	"Aliqambar" kuyi Xorazm mumtoz musiqa san'atining mashhur cholg'u asarlaridan biridir. Asar o'zining jo'shqin va jozibador ohanglari, nafis kuy rivoji hamda yuksak ijrochilik an'analari bilan ajralib turadi. Unda Xorazm musiqa maktabiga xos uslub va milliy musiqiy an'alar yorqin namoyon bo'ladi.
32	32-hafta	Navro'zi Ajam	Shashmaqom	Tanbur va Sato cholg'usi T.Alimatov ijrosida	"Ajam taronalari" — Farg'ona–Toshkent maqom yo'llariga mansub cholg'u turkumlaridan biri hisoblanadi. Ushbu asar orqali o'zbek maqom san'atining boyligi va Farg'ona–Toshkent maqom yo'llarining o'ziga xosligini his etishingiz mumkin.

33	33- hafta	Tanovar	O'zbek xalq kuyi	Maqom ansambli ijrosida	“Tanovar” — o‘zbek mumtoz musiqa an‘analarida keng tarqalgan, Farg‘ona–Toshkent musiqa yo‘llariga mansub mashhur kuy va ashula janri hisoblanadi. U maqomlarning alohida sho‘basi emas, balki xalq orasida shakllangan va mumtoz ijrochilik an‘analari bilan boyigan asarlar turkumidir.
34	34- hafta	Mug‘ilchai navo	Shashmaqom	Chang cholg‘usi ijrosida	“Mug‘ilchai Navo” — Shashmaqom tarkibidagi Navo maqomining cholg‘u qismlaridan biri hisoblanadi. “Mug‘ilchai Navo” Shashmaqomning Navo maqom yo‘liga mansub nafis cholg‘u namunalaridan biridir. Asar o‘zining mayin ohanglari, murakkab kuy tuzilishi va mumtoz ijrochilik an‘analari bilan ajralib turadi. Unda Navo maqomiga xos go‘zal kuy ifodasi, badiiy teranlik va nozik hissiyotlar aks etgan.